

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSETETI

MAGISTRATURA BO’LIMI

INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK-820.032.141

DIYOROVA MAHLIYO SHUHRAT QIZI

**“Ingliz tilida so‘zlarning morfologik xususiyatlari hamda semantik va
pragmatik tahlili**

5A120102 – Lingvistika (Ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

prof, Sh. Safarov

Qarshi-2017

Mundarija

Kirish	3
I BOB MORFOLOGIYADA SO'Z TADQIQI.....	7
1.1 So'z va uning lingvistik talqini.....	7
1.2 Tilshunoslikda shakl va ma'no munosabati.....	15
1.3 So'zlarni guruhlashning asosiy tamoyillari.....	21
I bobga xulosa.....	27
II BOB MAVHUM OTLARNINS SEMANTIK HUSUSIYATLARI.....	29
2.1 Mavhum otlarning semantik qatlamda o'rganilishi.....	29
2.2 Mavhum otlarning ma'no anglatishi va yasalishiga ko'ra turlari.....	44
2.3 Mavhum otlarning semantik tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari.....	50
II bobga xulosa.....	57
III BOB MAVHUM OTLARNING PRAGMATIK HUSUSIYATLARI.....	58
3.1 Pragmatika haqida umumiy qarashlar.....	58
3.2 Mavhum otlarning badiiy asarlardagi ma'nosi va pragmatikasi.....	73
III bobga xulosa	77
Umumiy xulosa.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	80

KIRISH

Mustaqillik davrida yoshlarga chet tillarni o'rgatishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi munosabati bilan mamlakatimiz uchun malakali chet tili o'qituvchilarini va tarjimonlarni yetishtirib berish, zamon talablariga mos keladigan chet tili bo'yicha darsliklar, qo'llanmalar, til nazariyalari, chet tilini o'zbek auditoriyada o'rgatish va o'qitishni qayta ihlab chiqishi hamda rivojlantirish zaruriyati ham tug'ildi.

Shu munosabat bilan, birinchi Prezidentimizning "Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosida ham faol muloqat vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi. Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda.

Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"¹ deb ta'kidlaganlarini o'ziyoq xorijiy va o'zbek tillarini qiyosiy planda o'rganish har bir ikkala tilning tadqiq etilmagan tomonlarini izlash va ochishda katta ahamiyat kasb etadi. Tillarni qiyoslab o'rganish natijasida, bir tilni o'rganishda e'tibordan tushib qolgan belgilar ko'rinadi, yani bir tilni o'rganganda tilshunos e'tibor bermagan ayrim belgilar ikki tilni qiyoslab tadqiq qilganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa chet tili o'rganuvchilar uchun qiyoslanayotgan chet tilining qiyinchiliklarini aniqlab berishda yordam beradi. Tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash esa, yani farqlar interferensiyani keltirib chiqaradi, o'xshashliklar fasilitatsiyalarni hosil qiladi, til o'rganuvchining o'zga tilni o'zlashtirishini osonlashtiradi, xatoga yoki muloqotni to'xtab qolishiga olib keladi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. -Т.:Маънавият, 2008: Б. 86.

Qiyoslanayotgan tillarning o'ziga xos tendensiya va qonuniyatlarini aniqlash, bir-biri bilan doimiy aloqada bo'lgan qiyoslanayotgan tillarning o'zaro boyishi hamda bir-biriga ta'siri va muqobillarni aniqlash ham ikki tilni qiyoslashning natijasida hosil bo'lgan nazariy masalalar hisoblanadi². Shuning uchun ham chogishtirma tilshunoslik chet tili o'qitishning lingvodidaktik asosi hisoblanadi, yani qiyoslanayotgan tillardagi farq va o'xshashliklarning metodik jihatdan ahamiyatining ko'rilishi chet tilini o'rganayotganlar nutqida ro'y beradigan tillararo interferensiya va fasilitatsiyalarni aniqlab, o'rganilayotgan tilning o'zbek talabalari uchun qiyin va oson tomonlarini ko'rsatib beradi.

Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi ingliz tilidagi mavhum otlar tasnifini ochishda xizmat qilishidan dalolat beradi. Ma'lumki, ot sohasida juda ko'p tadqiqatlar qilinganiga qaramay, ot so'z turkumi sohasida ham yetarlicha o'rganilmagan ba'zi bir munozarali masalalar mavjud bo'lib, otlarning grammatik jihatdan ilmiy tasnif qilish tamoyillari shu vaqtgacha ishlab chiqilmagan va ot turlari qiyosiy jihatdan yetarli va chuqur o'rganilmagan. Aytish lozimki, ko'pgina ingliz va o'zbek tili grammatikalarida tilshunoslikning oxirgi yutuqlarini hisobga olinmagan holda ishlab chiqilgan qator belgilar otlarni tasnif qilishda ingliz va o'zbek tilshunoslarining e'tiboridan chetda qolgan va turlicha talqin qilingan.

Bu tamoyil ot turlarini tasnif qilishda grammatika bilan leksika o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Demak, ingliz tilidagi ot turlarini ilmiy tasnif qilish tamoyillarining ishlab chiqilmaganligi, otni qiyosiy jihatdan o'rganilmaganligi, otni aniqlashda grammatika bilan leksika o'rtasidagi bog'liqlik yetarli hisobga olinmaganligi, otlarning ayrim belgilari tilshunoslar nazaridan tushib qolganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

So'zlarni turkumlarga ajratish, fe'l va uning tasnif qilish ko'pgina tilshunoslarni qiziqtirgan va qiziqtirib kelmoqsa. Masalan, O.P.Sunik, V.A.Kochergina, G.Xelbix, V.B.Kasevich, M.Stepanova, G.N.Voronsova,

² Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. - Т.: Фан, 2007. С. 14.

V.A.Plungyan, S.Kemmer va boshqalarning asarlarida soʻz turkumlari haqidagi nazariy fikrlar yoritilgan. Feʼning umumlisoniy xususiyatlari haqidagi maʼlumotlar I.I.Meshaninov, M.Aronof, J.L.Baybi, F.R.Palmer, D.Osten asarlarida berilgan.

Mavzuning dolzarbligi: Aytish lozimki, otning semantik turlarini va ularning valentliklarini oʻrganishda respublikamiz tilshunoslari tomonidan katta yutuqlarga erishilgan boʻlib, ot uning ayrim turlari va grammatik kategoriyalari haqidagi maʼlumotlar deyarli barcha oʻzbek va ingliz tili grammatikalarida berilgan. Ingliz tilshunosligiga kelsak, ingliz tilida otni toʻliqligicha oʻrganishga bagʻishlangan birorta ham dissertatsion ish yoki monografiya yoʻq. Ammo ot, uning ayrim turlari va grammatik kategoriyalari barcha ingliz tili grammatikalarida juda yaxshi yoritilgan. Ayniqsa ular L.S.Barxudarov, A.I.Smirnitskiy, I.P.Ivanova va boshqalar M.Blox, B.Xaymovich, B.Rogovskaya, B.Ilish va boshqa tilshunoslari tomonidan chuqur oʻrganilgan. Feʼning ayrim turlarini G.G.Silnitskiy, S.Jolobov, L.Lixamanova, E.M.Gordon, I.P.Krilova, K.A.Guziyeva, S.Kostigina va boshqalar oʻrganganlar.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi ot va uning turlari qiyosiy jihatdan faqatgina J.B.Boʻronov, Oʻ.Q.Yusupov, A.Sodiqov va A.M.Irisqulovlarning “ Ingliz ,oʻzbek, rus tillarining grammatik strukturalari” (1986 yil ingliz tilida chop etilgan) kitobida yetarlicha oʻrganilgan boʻlib, ular oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarning koʻpchiligi ochib berilgan, ammo bu ishda otlarning eng asosiy turi boʻlmish mavhum otlar— mutlaqo koʻrilmagan va qiyosiy jihatdan oʻrganilmagan.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: ingliz tilidagi mavhum otlar turlari va ular ifodalovchi semantik va pragmatik holatlar.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

-soʻz maʼnosiga berilgan taʼriflar va soʻzning semantik strukturasi haqidagi fikrlarni oʻrganish;

-soʻzlarda shakl va maʼno munosabatini yoritib berish;

- soʻzlarni guruhlashning asosiy tamoyillarini oʻrganish

-Ingliz tilidagi mavhum otlarning pragmatik va semantik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish.

Tadqiqotimizdagi ilmiy yangiliklar: quyidagilardan iborat:

Ingliz tilida barcha semantik munosabatlarni ifodalovchi vositalar aniqlandi; so'z ma'nosiga berilgan ta'riflar va so'zning semantik strukturasi, mavhum otlarning mustaqil ma'no anglatishi va yasalishiga ko'ra tasnifi hamda ulrning pragmatil tahlili, va badiiy adabiyotlardagi ishlatilish xususiyatlari.

Tadqiqotning metodologik asosi: sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonunlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", chet tillarni o'rganish sistemasini yanada takomillashtir bo'yicha hatti-xarakat choralari haqidagi prezidentimiz I.A.Karimovning 10-dekabr 2012 yildagi farmoni va boshqa meyoriy xujjatlar olindi. Xorijlik tilshunoslar (O.P.Sunik, V.A.Kochergina, B.N.Golovin, V.B.Kasevich, M.Stepanova, G.Xelbix, G.N.Voronsova , V.A.Plungyan, S.Kemmer va yurtimiz olimlari(J.B.Bo'ronov, O'.Q.Yusupov , A.Sodiqov va A.M.Irisqulovlar hamda boshqalarning asarlarida lingvistik metodologik asos sifatida foydalaniladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, aniqlangan sintaktik munosabatlarning ifodalovchi vositalar ingliz va o'zbek tillari grammatikalarini yangi faktlar bilan boyitadi va chog'ishtirma tilshunoslikdagi bir bo'shliqni to'ldiradi. Tadqiqod natijalarini " Ingliz tili nazariy grammatikasi", " Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi" kurslarini o'qishda , " Ingliz tili amaliy grammatikasi" darslariga tadbiq qilish va qo'llashdan iborat .

Dissertatsiyaning tuzilishi: kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat

Tadqiqod natijalari e'lon qilinganligi: Dissertatsiya yuzasidan 2016-2017 yillarda uchta ilmiy maqola nashr etilgan .

I BOB. MORFOLOGIYADA SO'Z TADQIQI

1.1 So'z va uning lingvistik talqini

So'z tilning muhim birligi bo'lib, u tilshunoslik va ekstralingvistikaning juda murakkab muammolaridan biridir.

So'zga berilgan turli ta'riflar so'zning jihatlarini ochib berishga qaratilgan. So'z til birligi, nutq birligi, nutqni tushunish (qabul qilish) birligi morfemalar ketma-ketligi, ma'lum ma'no mazmun ifodalovchi birlik va boshqalar sifatida ta'riflanadi. Shunday ta'riflardan biri N.A. Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abdulazizovlarning "Umumiy tilshunoslik" kitobida keltiriladi. Va u quyidagichadir: "So'z tilning eng asosiy va markaziy birligi bo'lib traditsion jihatdan aytilish va ma'no birligi, tilshunoslar tomonidan haqiqiy va formal ma'nolar, grammatik va leksik ma'nolarning qarama-qarshiligi sifatida qarab kelindi. So'zlarga belgilarning bir-biriga aloqasi jihatdan qaralsa, uning ikki tomoni formasi (aytilishi) va mazmuni (ma'nosi) o'rtasidagi tashqi (predmet qatori) va ichki (tilning qurilishi) tomonini ko'rsatadi. Shuning uchun ham so'z (grammatik birliklar ham shunday ikki tomonlama hisoblanadi) tilda ikki planda namoyon bo'ladi: 1) nominatsiya, ya'ni atash birligi sifatida ma'lum leksik ma'noga ega bo'lgan lug'atning elementi; 2) til qurilishi strukturasi negizi sifatida ma'lum morfologik shakllanishga, ya'ni grammatik ma'noga ega bo'lgan birlik.

So'zning talaffuz tomoni ham nazarda tutilsa, u yuqoridagi ikki plani bilan bir qatorda fonologik struktura bilan ham alohida birlik hisoblanadi. Shu tufayli "Fonologik so'z", "Morfologik so'z" va "Semantik so'z" tushuncha va atamaları ularning har biri alohida til yarusida (fonologiya, morfologiya va semasiologiyada) o'rganiladi. So'zga kengroq ma'noda bir necha fonemalarni birikuvidan yohud bir fonemadan iborat bo'lgan, tildagi boshqa birliklardan alohida talaffuzi bilan ajraladigan va o'zining leksik ma'nosini (yohud an'anaviy "semantik uchburchak"da ko'rsatilganidek, referent funksiyasini) saqlab qoluvchi tilning asosiy birligi deb ta'rif berish mumkin. So'zni mazmun jihatdan bir necha

komponentlarga bo'lish mumkin. Bu komponentlar "Semantik uchburchak"da ko'rsatilganidek, leksik ma'no, belgi va denotant o'rtasidagi aloqalarni chuqur o'rganish orqali aniqlanadi va bunda, albatta, so'zning leksik ma'nosi alohida o'rin egallaydi. Tilshunoslikda ma'no tushunchasi eng murakkab va ko'plab bahslarga boy bo'lgan tushunchalardan biri hisoblanadi. So'zning ma'nosiga berilgan ta'riflardan hech biri fanda butunligicha (to'laligicha) qabul qilinmagan. Turli xil tilshunoslar turli davrlarda so'zning ma'nosiga turlicha yondoshib, uni ochib berish uchun o'z ta'riflarini berganlar. Lekin ular orasidan hech bir berilgan ta'rif fanda so'z ma'nosining barcha jihatlarini yoritib bera olmagan.

So'zning ma'nosiga berilgan shunday ta'riflardan biri mashhur Shveysariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyur tomonidan berilgan bo'lib, unda so'z ma'nosining funksional xususiyatlari inobatga olingan bo'lib, so'zning ma'nosi bu narsa yoki tushuncha va uning nomi (atalishi) orasidagi o'zaro aloqa, ekanligi ilgari suriladi. Ya'ni, bunda biror tushuncha so'z orqali ifodalanganda inson ongida o'sha so'zni eshitganda shu so'zga mos bo'lgan tushuncha o'z aksini topadi, ya'ni o'sha predmet yoki hodisa tushuniladi. Masalan, daftar so'zini eshitganda inson ongida "bir necha sahifalardan tashkil topgan va yozish uchun qo'llaniladigan o'quv quroli" tushuniladi.

Mashhur amerikalik deskriptiv tilshunoslik namoyondalaridan biri L. Blumfild va uning shogirdlari so'zning ma'nosiga ta'rif berar ekanlar, ular so'zning ma'nosini biror so'z talaffuz qilingan situatsiya sifatida ifodalaydilar. Ular so'zning ma'nosiga situatsiya jihatidan yondashar ekan, biror narsaning ma'nosini ochib berish, tushunish yoki aniqlash uchun o'sha so'zga situatsiya tuzish kerakligini ta'kidlaydilar. Situatsiyalar insonga gapirayotganda o'sha narsaga nisbatan bo'lgan fikrni berishga xizmat qiladi. Masalan agar biz "olma" so'zining ma'nosini bilmoqchi bo'lsak, biz unga situatsiya tuzishimiz kerak.

L. Blumfild fikrlarini davom ettirgan uning shogirdlari so'zning ma'nosi va umuman, ma'no tushunchasini chuqur o'rganib chiqib, ma'noga shunchalik chuqur kirib boradilarki, ular so'zning ma'nosini leksikologiyaning bir bo'limi bo'lgan semasiologiyaning predmeti deb qabul qiladilar va semasiologiyani

tilshunoslikdagi fanlar tizimidan ajratib alohida bir fan sifatida rivojlantirishga harakat qildilar. Lekin ularning ushbu olg'a surgan fikrlari fanda tasdig'ini topmadi va semasiologiya leksikologiyaning bir bo'limi sifatida saqlanib qolindi. Tilshunoslik til va nutq bilan shug'ullanar ekan so'zning ma'nosini o'rganuvchi semasiologiya ham uning bo'limi bo'lib qolaveradi.

So'zning ma'nosiga berilgan ta'riflar haqida fikr yuritar ekanmiz, biz G.Paulning so'zning ma'nosiga bergan ta'rifini ham ta'kidlab o'tishimiz o'rinlidir. G.Paulning fikriga ko'ra har bir so'z ma'lum bir predmetga dahldor (ta'lluqli) bo'lish imkoniyatini beruvchi bir qancha mazmuni ifodalovchi tushunchalarni o'z ichiga oladi va bu so'zning ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni tildagi barcha so'zlar ma'lum guruhlarga ajratiladi va shu guruhlarda har bir so'z o'ziga xos bo'lgan elementlardan tashkil topadi va shu elementlar so'zning ma'nosini ifodalaydi.

Ma'lumki, XX asrning dastlabki choragida va undan keyinroq tildagi barcha so'zlarni 20 ta umumiy guruhlarga ajratib tasniflaydi va ularning har biri

20 tadan 90 tagacha tushunchalarni o'z ichiga oladi. Demak, har bir tildagi ma'lum bir so'zning ma'nosini o'rganishda tashkil topgan tushuncha elementlari so'zning ma'nosini ochib beradi.

Tushuncha orqali so'zning ma'nosini aniqlash metodlari o'ziga xos rang – barang xarakterga egadir. Masalan mashxur nemis tilshunosi F.Dornzayf so'zning ma'nosiga ta'rif berar ekan, u assosiatsiya asosida bir- biriga aloqador (bog'langan) so'z va predmet xodisalari haqida ta'kidlaydi. Va shu tarzda mavjud bo'lgan predmet va so'z tushunchalari so'zning ma'nosini belgilaydi (Dorseiff, 1934-34). Ya'ni bunda asosiy o'rinni tushuncha egallaydi. Har bir tushuncha so'z orqali anglaniladi va albatta, har bir tushuncha aynan bir so'z bilan ifodalaniladi. Shu tushuncha o'zaro bir- birini aks ettiradi(yoxud taqozo etadi) va ko'rinib turibdiki bir-biri bilan bog'liqdir so'zining ma'nosini bildiradi.

Tushuncha orqali so'zning ma'nosini aniqlash metodidan foydalangan G. Stern esa so'zning ma'nosini so'zning qo'llanilish doira (sferasi) sini bildiruvchi so'zning mazmun bilan bog'laydi. Ya'ni, ma'lum so'z ma'lum darajada (sferda)

qo'llanilar ekan, u boshqa bir doirada qo'llanilmasligi bilan o'zining ma'nosini bildiradi. Har bir so'z nuqtada qo'llanilar ekan u ma'lum tushunchani anglatadi.

Masalan, material so'zi qo'llanish sferasiga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin, qurilish sohasida qurilish materiali(qurilishda ishlatiladigan turli xil xom ashyolar) gazlama (material)da ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadi.

Demak, so'zlar Sternning fikriga ko'ra, ma'lum sferada ishlatilganda o'z qo'llanilishi doirasi bilan farq qilganda yuzaga chiqadigan tushuncha so'zining ma'nosini belgilaydi.

Gombots va F.De – Sosuyur olg'a surgan fikrlarni davom ettirgan St. Ulmann so'zning ma'nosiga unung funksional xususiyatlardan kelib chiqqan holda, so'zning ma'nosi ta'rifini quyidagicha shakllantiradi: “so'zning ma'nosi bu bir-birini taqoza etish imkonini beruvchi nom va tushuncha orasidagi munosabatdir”. Biz yuqorida F. de – Sossyur fikrlarini keltirganimizda ushbu ta'rifga misollar berib o'tgan edik, ya'ni biror predmet yoki hodisa talaffuz qilinganda inson ongida o'sha predmet yoki hodisani ifodalaydigan tushuncha o'z aksini topadi.

Y.Trir har bir alohida so'zning ma'nosini ta'rifini umumiy tushunchaga tegishli bo'lgan boshqa so'zlarga bog'liqligini ilgari suradi va so'zning ma'nosini quyidagicha ta'riflaydi; “Hech bir talaffuz qilinayotgan so'z gapiruvchi tomonidan talaffuz qilinganda, u fonetik alohidaligidagidek fikrni gapiruvchi tomonidan alohida ko'rinishda namoyon bo'lmaydi va so'z yonida kelgan so'z bilan birga bo'lgan holdagina so'zning ma'nosini bildiradi”. Ya'ni har bir alohida so'z tildan tashqarida (tilga aloqador bo'lmagan holda) mavjud bo'lgan tushuncha ifodasi mozaykaning bir bo'lgi ko'rinishida bo'ladi.

Bunda Trir analogiya sifatida ranglarning “ma'nosi”ni so'zning ma'nosi bilan solishtiradi. Misol sifatida u svetoforni keltiradi. Svetoforning qizil rangini ko'rganda biz “to'xtash” signalini tushunamiz, chunki boshqa ranglar “to'xtash” ishorasini bildirmaydi, ular boshqa ma'nolarni bildiradi. Xuddi shunday holat so'zning ma'nosi bilan ham sodir bo'ladi, va so'zning ma'nosi til rivojlanishining har bir etagida “semantik maydon” dagi holati bilan belgilanadi.

Shu tariqa soʻzning maʼnosi tushuncha ifodalanadigan umumiy mozayka koʻrinishidagi tutgan oʻrni (pozitsiyasi) dan aniqlanadi.

Har qanday semasiologiyaga daxldor boʻlgan ilmiy ishda soʻzning leksik maʼnosiga taʼrif beriladi. Ana shunday taʼriflar biri oʻzbek tilshunoslar A.S.Sodiqov, M.T.Irisqulov, A.A.Abdualazizovlarning “Tilshunoslikka kirish” kitobida berilgan va u quyidagichadir: “Ayrim olingan soʻzga tegishli boʻlib, boshqa soʻzlardan farqlay oluvchi maʼno soʻzning leksik maʼnosi deb yuritiladi. Soʻzning leksik maʼnosi birinchi navbatda oʻsha oʻzagining maʼnosi bilan bogʻliq boʻlagi va xar qanday affiks qoʻshilganda xam saqlanib qoladi. Masalan, yaxshi, yaxshlik, yaxshilikchi. Bunday “yaxshi” soʻzining leksik maʼnosi uni boshqa soʻzlardan (masalan, yomon soʻzidan) farqlashga xizmat qiladi”.

Baʼzi ilmiy ishlarda soʻzning leksik maʼnosiga taʼrif berilar ekan, soʻzning leksik maʼnosiga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilmagan taʼriflar berilgan hollar ham uchraydi. Masalan, shunday taʼriflardan biri rus olimi A.G.Spirkin tomonidan berilgan boʻlib, u quyidagicha koʻrinish olgan: “Soʻzning maʼnosi bu insonning ruhiy (psixik) hayotidagi maʼlum tovushlar kompleksi ifodalaydigan real faktlarning maʼlum tovush kompleksiga aloqadorligidir”. Soʻzning maʼnosiga barilgan shu kabi taʼriflar tilshunoslik fani doirasidan tashqarida boʻladi va tilshunoslik faniga daxldor boʻlmagan faktlarga asoslanadi. Tabiiyki, bunda tilshunoslik faniga daxldor boʻlmagan metod va terminlardan foydalanilgan.

Soʻzning maʼnosiga lingvistik jihatdan yondashgan mashhur rus tilshunosi A.I.Smirnitskiy soʻzning maʼnosiga quyidagicha taʼrif beradi: “Soʻzning leksik maʼnosi bu uning leksik – semantik variantlarining yigʻindisidir. Soʻzning leksik-semantik variantlari termini A.I.Smirnitskiy tomonidan fanga kiritilgan boʻlib, u asosiy va asosiy boʻlmagan, soʻzning oʻz maʼnosi va koʻchma maʼnolari – barchasini oʻzida mujassam etgan hech qanday cheklanish va chegara boʻlmaydigan tushunchadan iboratdir. Soʻzda yaʼni leksik – semantik variantlarining rivojlanishi, bir tomondan, soʻzning maʼnosini oydinlashtiradi (aniqlashtiradi) va boshqa tomondan, soʻzning maʼnosi kengayishiga xizmat qiladi.

Soʻzning leksik maʼnosiga taʼrif bergan rus tilshunosi V.V.Vinogradov oʻzining “Русский язык” kitobida soʻzning leksik maʼnosiga quyidagicha taʼrif beradi;³ “Qoʻllanilishidan qatʼiy nazar soʻz oʻzining oʻz maʼnosi, yashirin maʼnosi yoki yuzaga chiqish ehtimolligiga ega boʻlgan barcha maʼnolarni oʻzida qamrab oladi. Albatta, soʻzning u yoki bu maʼnosi u qoʻllaniladigan kontekstda oʻzini namoyon qiladi va aniqlanadi”.

Berilgan (maʼlum bir) soʻz kontekstda qancha koʻp ishlatilsa, uning oʻshancha leksik shakli mavjud boʻladi. Bundan koʻrinib turibdiki, soʻz oʻzida hech qanday mustaqil maʼnoni anglatmaydi, yaʼni uning maʼnosi faqat u qoʻllaniladigan kontekstda aniqlanadi va har qanday ishlatilgan soʻz bu uning maʼnosini tashkil qiladi.

Yuqorida har doim ham bir fikrni maʼnosini toʻlaligicha ochib berish funksiyasini bajaravermaydi. Odatda, suhbatdosh nutqini tinglayotgan kishi suhbatdoshining gapirayotgan soʻzlariga, uning oʻzining tushinishiga qamrab u (suhbatdosh) ning ruhiy (psixik) holatini va gapirayotgan kishi yoki narsa hodisasiga nisbatan boʻlgan munosabatini aniqlab olishi mumkin. Ushbu keltirilgan fikrlarga R.Shorn va T.Chemodanov quyidagicha xulosa qiladi: “....

Soʻzning maʼnosi murakkab strukturaviy hodisa sifatida oʻz ichiga quyidagilarni oladi: a) turli xil belgilar, oʻz ichida berilgan hodisaning mavjudligini ifodalaydigan ehtimolini oladi, ehtimol esa maʼlum voqea yoki hodisani tasniflaydi; b) maʼlum predmetni yoki bir qancha predmetlarni yigʻindisini biror narsaga tegishliligi (daxldorligi)ni koʻrsatadi; v) ifodalaydigan narsa yoki hodisaning qadr – qimmatini bildiradi va bunda bizning individual – psixologik baholashimiz oʻz ifodasini his – tuygʻu (emotsionallik) elementlarini oʻz ichiga olgan holda aks etadi. Yana bir Oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun nashr etilgan darslikda biz soʻzning maʼnosi bilan ekspressv-emotsional (xis- tuygʻuni ifodalovchi) elementlarini bir-biriga bogʻlangan holda ifodalanganligini koʻrishimiz mumkin.

³ V.V.Vinogradov “Русский язык СТ-67, МОСКВА

Rus tilshunoslari A.M.Finkel va N.M.Baje” nov so’zning manosi o’zlarining “Современный русский литературный язык quyidagicha ta’riflaydi⁴: “Abstrakt leksikaning butunlay qarama – qarshisi (aksi)” bo’lgan hodisa bu (his – tuyg’uli) leksika, ya’ni biror his tuyg’uni elmtsional(emotsiyani yoki ma’lum his tuyg’uni keltirib chiqarishni ifodalaydiga so’zlar hisoblanadi.

keltirib chiqarishni ifodalaydigan so’zlar hisoblanadi. Ma’lum so’zlarning emotsionalligi so’zning leksik ma’nosida o’z ifodasini topadi yoki boshqa so’zlarda ma’lum ma’no yasovchi qo’shimchalar yoki suffikslarni qo’llash orqali beriladi. Shunday qilib, biz bunga bir qancha guruhlarni keltirishimiz mumkin. Mana shunday guruhlarni ba’zilarini so’z ma’nosining o’zida namoyon bo’ladi. Bu so’zlar munosabat, baholash kabi tuyg’ularni ifodalaydi.

XX asrning o’rtalarida faoliyat ko’rsatgan rus tilshunos olimi L.A.Bulaxovskiy o’zining “Tilshunoslikka kirish” kitobida so’zning ma’nosi haqida quyidagicha fikr yuritadi: “ So’zning ma’nosi shunday hodisaki unda kishi tomonidan o’z nutqida e’tirof etilgan borliqda mavjud faktlar yoki narsalar boshqalar tomonidan bir xil tushuniladi va bu gapiruvchi va tinglovchi orasida o’zaro bir-birini tushunish hodisasini vujudga keltiradi”. Ya’ni bu gapiruvchi tomonidan gapirilgan ma’lum bir tildagi nutqni o’sha til vakillari bir xil tushunishidir. Masalan, o’zbek tilida gapiruvchi kishi “bahor” deb aytsa uni tinglayotgan o’zbek tilida gapiruvchilar “qish bilan yoz o’rtasidagi yilning fasli” ni tushunadi. Demak, gapiruvchi tomonidan biror tildagi so’z talaffuz qilinganda o’sha tildagi kishilar tomonidan aynan o’sha narsani to’g’ri tushunishi so’zning ma’nosini bildiradi.

Yana bir rus olimi L.S.Kovtun esa so’zning ma’nosi haqida mulohaza yuritar ekan, u ham o’z navbatida so’zning ma’nosiga ta’rif berib o’tadi. L. Kovtun o’zining “So’zning ma’nosini haqida” (“О значении слова”) maqolasida so’zning ma’nosiga quyidagicha ta’rif beradi: “ So’zning ma’nosini – ma’lum til sistema (tizim) lari vositasida tushunchani realizatsiyasidir. Bunda ham asosiy

⁴ A.M.Finkel, N.M.Bajenov “ Современный русский литературный язык

e'tibor tushuncha bilan talaffuz, ya'ni biror so'zning aytilishi va uning eshituvchi tomonidan tushunilishiga qaratiladi. Boshqacha qilib aytganda ma'lum bir tushunchani yoritib berish uchun ma'lum so'zlardan foydalaniladi, so'z va tushunch orasidagi bog'liklik esa so'zning ma'nosini tashkil qiladi.”⁵

Shu o'rinda E.Velanderning quyidagi fikrlarini yodga olish lozimdir, uning fikricha “So'zning ma'nosi bu berilgan so'zni individum bog'lanish hodisasidir”. Ya'ni so'zdagi ma'no, albatta, dastlab ma'lum shaklga ega bo'ladi, bu shakl esa, albatta, uning talaffuzi yoki yozuvdagi ko'rinishidir va bunda shakl va ma'no bir – biri bilan chambarchas bo'ladi. Shakl va ma'noning bir – biriga chambarchas bog'liqligi haqida ko'plab tilshunoslar o'zlarining turli xildagi mulohazalarini o'rtaga tashlaganlar. Shunday tilshunoslardan biri St.Ulmann ma'noni assostiatsiya asosida o'rganib quyidagi fikrlarini keltiradi: “agar predmet haqida o'ylasam uning nomini yodga olaman; agar predmet nomini o'ylasam predmetni o'zini esga olaman. Bir – birini taqozo etuvchi (anglatuvchi) simvol va fikr (o'y) assosiativ (bog'liqlik) zanjiri so'zning ma'nosi hisoblanadi.

Tushuncha va ma'noning bir – biriga chambarchas bog'liqligi haqida tadqiqot olib borgan olimlardan biri A.I.Tomsondir. Tomson tilning barcha strukturaviy qismlarida tushuncha va ma'noni bir – biriga o'xshaydigan hodisa sifatida qabul qiladi. Uning fikricha: “Bizning tushunchamiz bu til ma'nosining mazmunidir, agar tushunchada biror o'zgarish sodir bo'lsa ma'no ham o'zgaradi, tushunchaning yo'qolishi bu ma'noning ham yo'qolishidir, va shu bilan birga o'sha ma'noni ifodalaydigan so'z ham yo'q bo'lib ketadi”. Shunday ekan, biz yana bir bor ma'no tushuncha va so'z o'zaro chambarchas bog'liq ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Tilshunoslik tarixida so'zning ma'nosiga turli xildagi va turli hajmdagi ta'riflar berilgan bo'lib, ularning barchasi so'zning ma'nosini to'la ochib berishga qaratilgan. Shunday ta'riflardan bir rus tilshunosi V.M.Nikitin tomonidan berilgan bo'lib, u hajm jihatidan eng qisqa va umumiy ta'rifdir. U o'zining “til

⁵ L.S.Kovtin “ So'zning ma'nosi haqida” 1973 , 34- bet

birliklarining taksanomiyasi” maqolasida soʻzning maʼnosini shunday taʼriflaydi: “Belgi bilan bogʻliq boʻlgan tushuncha”. (“концепт связанный со знаком”).

Biz yuqorida soʻzning maʼnosiga tilshunoslik fanining turli davrlarida dunyoning turli tilshunos olimlari tomonidan turlicha yondashuvlaridan baʼzilarini keltirib oʻtib ularga sharxlar berib oʻtdik, mulohaza yuritdik.

Shu oʻrinda ularning taʼriflari yordamida biz soʻzning maʼnosiga quyidagicha taʼrif bermoqchimiz: soʻzning maʼnosi biror kontekst yordamida yoki kontekst yordamisiz aniq bir soʻzning talaffuzi yoki belgisi bilan aynan oʻsha soʻz anglatadigan tushunchaning inson tafakkuridagi uygʻunligidir. Ushbu taʼrifda biz “kontekst yordamida yoki kontekst yordamisiz” deb taʼkidladik, buning boisi shundaki soʻzlarni kontekst yordamisiz ham tushunish mumkin va bunda soʻzlar bir maʼnoli (monosemantik) boʻladi, lekin biror til yoʻqki u faqat bir maʼnoli soʻzlardan tashkil topsa, har qanday tilda biz koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlarni uchratamiz va albatta koʻp maoli soʻz talaffuz qilganda biz kontekstga murojaat qilamiz.

Demak, soʻzning maʼnosini ochib berilishida talaffuz (belgi), tushuncha va inson tafakkuri asosiy vazifani oʻz zimmasiga oladi, va ularsiz soʻzning maʼnosini toʻla ochib berishning umuman iloji yoʻq. Soʻzning maʼnosini toʻlaligicha ochib berishga qaratilgan qancha koʻp taʼrif berilgan boʻlishiga qaramasdan, fanda ulardan birorta ham toʻlalicha oʻz aksini topmagan, toʻlaligicha qabul qilinmagan va birorta taʼrif soʻz maʼnosining barcha qirralarini ochib berish vazifasini uddalay olmagan. Shunday qilib, tilshunoslik fanida soʻzning maʼnosiga berilgan taʼriflar yaʼni maʼnosini ochib beradigan aniq bir taʼrif hali fanda mavjud emas. Shu sababli ham ushbu mavzu tilshunoslik fanida hamon turli bahs va munozaralarga boy boʻlgan muammoligicha qolmoqda.

1.2. Tilshunoslikda shakl va maʼno munosabati

Soʻzlarning shakl va maʼnosi toʻgʻrisida olimlar koʻplab tadqiqod olib borganlar.

Tilshunoslikning asosiy davrida mashhur tilshunos olim Ferdenand De Sossyur o'zining "Semiotika" ta'limotida ham so'zlar tabiati shakl asosida yoritilishini isbotlab o'tgan. So'zlarning boshqa turdagi semiotik birliklardan farqi ularda shaklning tabiatan mazmun ma'no bilan bog'liq bo'lishidadir. Bundan tashqari so'zning shaxslararo muloqat va munosabatining yanada murakkabroq bo'g'lanishlarga ega ekanligini ko'ramiz. Semantikada ma'no hodisasining har bir qirradi alohida e'tiborga olinadi. Leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning shakl va mazmun kategoriyalari munosabatiga asoslanadi. Shakl mazmunning bo'lishini taqoz qiladi, mazmun esa shaklsiz yuzaga kelmaydi, ifodalanmaydi ham.

Masalan *house* va *esohu* so'zlarida *shahar* va *hasher* leksemalarida ham bir xil fonemalar qatnashgan, ammo bu fonemalarning joylashish tartibidir, hamda leksemaning shakli har xil. Bu hol shu ikki leksema ma'nolaridan tilda farqlanishini ta'minlaydi. Ulardagi fonemalar tarkibini o'zgartirish esa shaklning yo'qolishiga olib keladi: *shahar* (so'z leksema), *ashhar* (so'z emas), *hasher* (so'z leksema), *rashah* (so'z emas).

Tilshunos olim D.Lyusning fikricha, "ma'no ramziy hususiyatga ega bo'lib, u tabiiy tildan qandaydir yordamchi tilga qilinadigan tarjima "6 deb hisoblaydi. So'zning ma'nosi sof lingvistik nuqtai nazardan uning boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyatlari, boshqacha aytganda valentlik xususiyatlariga nisbatan aniqlanadi. So'zning birikish imkoniyatlari to'plami leksik ma'noning obyektiv mavjud bo'lgan hodisa yoki til tizimi fakti ekanligiga ishora qiladi"

Ma'no turg'un o'zgarmas narsa emas balki, u biz uchun ma'nili va manoli bo'lgan hodisadir. Bilamizki hech bir til birligi o'z- o'zidan biror bir yangi ma'noni anglatmaydi. Ma'no va shaklga ega bo'lishi uchun so'z ma'lum bir turdagi hodisa sifatida aniq bir muhitda shu turdagi boshqa hodisalar qurshovida faollashuvi lozim. Shu bois so'zning lug'atlarda izohlanayotgan ma'nosi voqelik haqidagi tushuncha designanatning izohi, lisoniy idrok elementlarining o'zaro

⁶ D.Lyus "Terms in Semantics", Continuum.2010,45-page

aloqador jihatlarining sharxidan iboratdir. Soʻzning mavjudligi ham uning ifoda imkoniyatlarining nomoyon boʻlishidadir. Soʻzlar ular vositasida ulardan boshqa bir narsa haqida gapirish uchun mavjuddirlar. Mashhur lugʻatshunos V.A. Doroshevskiy shakl va maʼno haqida quyidagi fikrni aytadi:”Soʻz nimani ifodalashi haqida oʻylayotib- deb yozadi olim, shu zahotiy oq uning qanday qoʻllanilishi haqida oʻylamaslikning iloji yoʻq , chunki soʻzlar aynan nutqda qoʻllanilayotganida maʼnoga ega boʻladi”.⁷ Maʼlumki maʼno aniq chegara va koʻrinishga ega emas, shu sababli u soʻz qoʻllanishining aniq marrasi yoki nishoni boʻla olmaydi . Ferdenand De Sossyurning fikricha esa til substansiya emas , balki shakldir degan fikrni ham beradi . Baʼzi adabiyotlarda maʼno va shakl ifodalovchi va ifodalanmish shaklida ham beriladi.Har qanday holatda ham maʼno shaklda gavdalanadi. Mazmunsiz lisoniy moddiylik boʻlmaganidek fikrni lisoniy shaklsiz ifodalab boʻlmaydi. E.Benvinist aytganidek: “Shakl va maʼno bir tushunchaning ikki jihatidir . Soʻzning shakli bu tushunchaning tovushli formal koʻrinish olishi, maʼno esa ifodalovchining tafakkurdagi muqobilidir. Soʻzning maʼnosi har doim lisoniy materialda gavdalanadi. Maʼno va shakl doim mujassam boʻladi. Ular oʻrtasidagi munosabatlar turli tuman, biri ikkinchisini takrorlamaydi”⁸. Yagona bir maʼno turlicha ifoda topishi mumkin boʻlganidek ,birgina soʻz turli maʼnoga ega boʻlishi kuzatib oʻtiladi. Bunday bir – biriga oʻtish jarayonida maʼno va shaklning biri ikkinchisini gavdalantirishi hech qachon yoʻqolmaydi . Shakl va maʼno tilning muvozanatini saqlaydi. Shuningdek shakl predmetning mavjud boʻlish usuli mazmunning elementlarini bir biriga bogʻlaydi. Maʼno predmetning xususiyat va belgilarida nomoyon boʻladigan mohiyat. U predmetni qandayligini ifodalaydi. Til bir butun sistema sifatida tasavvur qilinarkan, qanday qilib ifodalash uning formasini, nimani ifodalash esa uning mazmunini tashkil etadi.

⁷ V.A.Doroshevskiy’Semantika” M: 1987,32-33 CT

⁸ E.Benvinist” Семантическая структура слова”M: 1983, 43 ст

Soʻz tushuncha formasidir. Lugʻatlarda beriladigan soʻzlar tilning formasi ularga beriladigan izoh ular ifodalaydigan tushunchani belgilab berish tilning mazmuniga talluqlidir. Soʻz ayrim nutq tovushi yoki ularning maʼlum tartibda birikishidan hosil boʻlgan doimiy butunlik boʻlib uni ishora yoki simvol deb ham ataydilar. Har bir til ishoralarni shakllantirishda oʻz fonologik modeliga ega. Bu tildagi fonemalar miqdorini oʻzaro munasabatini , yonma-yon kelish imkoniyatini belgilab beradi . Tildagi baʼzi formalarning mustaqil, mantiqiy yoki leksik xarakterda , ammo baʼzi formalarning mazmuni grammatik yondosh harakterda, yaʼni til formalari erkin va bogʻliq turlarga boʻlinadi.

Soʻz grammatik formasining soʻz oʻz leksik maʼnosini saqlagan holda gapda qoʻllanadigan koʻrinishi va shu koʻrinish bilan bogʻlangan grammatik maʼnolarga ega boʻlishdadir. Grammatik forma oʻzgaradigan soʻzlardagina ajratib koʻrsatilishi mumkin. Konkret soʻzning nutqdagi soʻzni koʻzda tutmaydigan forma tipi grammatik maʼnodir. Grammatik formasi uni leksik maʼnoni ifodalashi bilan birga oʻzaro birikish chogʻidagi nutqdagi boshqa soʻzlarga munosabatini, yaʼni aloqasini ifodalaydigan qoʻshimcha maʼnoga va shunga muvofiq shaklga kirishidir. Har xil soʻzning bir xil grammatik maʼnoga ega boʻlgan koʻrinishini forma tipi deb yuritiladi. Forma tipi termini umumlashtiruvchi tushunchani ifodalashi mumkin. Soʻz formalari tuzilishiga koʻra uch turga boʻlinadi:

1. Sintetik
2. Analitik
3. Sintetik analitik

Soʻz formasidagi maʼno affiks orqali ifodalansa sintetik forma deyiladi. Masalan -Maktabga bordim, uyga keldim.

Agar maʼno yordamchi soʻzlar orqali yoki takrorlash bilan ifodalansa analitik forma deyiladi.

Masalan ,-gul kabi, eng yaxshi, etak-etak

Agar ma'no ham affiks ham analitik forma yasovchilar ishtirokida yasalsa aralash yoki sintetik analitik forma deyiladi, so'zning bu formasi ko'proq rus tilida uchraydi: Masalan -в школе . Ma'noga mos bo'lgan leksik grammatik butunlik hosil qilishi grammatik forma deyiladi. Shu ma'noda grammatik forma aynan so'z turkumiga teng kelishi ham teng kelmasligi ham mumkin.

Masalan *qiz-qizcha-qizga* kabilar bittadir. *Olmosh kabi* , *maktab tomon*. Ular har biri ikkitadan so'z turkumidan tashkil topgan. So'zning analitik formasi so'z birikmasiga yetmagan , so'z birikmasini bir elementigina bo'la oladigan butunlikdir. Ammo bu ayrim so'zga ham teng bo'lmagan oraliq hodisadir. Analitik forma tufayli morfologiya sintaksislashadi. Bulardan sintaktik morfologiya kabi ta'limot vujudga keladi.

So'zdagi" analitik forma" tushunchasi va uni ayrim so'zga bog'lash tilshunoslar orasida katta ilmiy olib borilayotgan sohalaridan biridir.

Analitik forma so'z turidagi yordamchi so'zning o'rni o'gartirilishi va boshqa so'zlar bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, *dev singari juda guzal-guzal juda, dev kabi*

Sintitik formada affiksning negizdan ajratilishi yoki boshqa affiks bilan almashtirilishi analitik formadagiga nisbatan juda kam, ayrim formada esa umuman mumkin emas.

Analitik formalarni morfologik hodisa deb hisoblovchi tilshunoslar bu formalarda paradigm qidiradilar. Turkiy tillardagi analitik formalar paradigm sistemasiga ham kirmaydi, maxsus paradigm ham hosil qilmaydi. Analitik formalar garchi ikki ba'zan undan ortiq so'zlarning birikishidan tuzilsa ham erkin so'z birikmasi bilan bir xil emas. Ular orasidagi eng muhumlarini shunday ko'rsatish mumkin.

1. So'z birikmasi formasining komponentlari odatda mustaqil so'zlardan ularning har biri o'z leksik ma'nosini saqlaydi. Analitik formada bitta leksik ma'no ifodalaydigan asosiy so'z bo'lib ikkinchisi o'z leksik ma'nosi bilan qo'llanmaydigan grammatikalizatsiyalashgan yordamchi so'zlar

2. Analitik forma struktura va mazmun tugalligiga ega emas. Soʻz birikmasida esa bunday tugallik, butunlik mavjud boʻladi.

3. Analitik formani yasashda ishtirok etadigan yordamchi soʻzlar xususan koʻmakchilar, otlar ikki tomonlama- bir tomondan kuchsiz boʻlsa ham oʻzidan oldingi soʻz bilan ikkinchi tomondan oʻzidan keyingi soʻz ayniqsa ,fel bilan grammatik aloqaga kirishadi.

Grammatik forma uch xil butunlikka nisbatan qoʻllanishi mumkin. Shu jihatdan u uch turga boʻlinadi 1) soʻzning grammatik formasi, 2) soʻz birikmasi formasi, 3) gap formasi.

Soʻzning grammatik formasi – soʻzning oʻz leksik maʼnosini saqlagan holda gapda qoʻllanadigan koʻrinishi va shu koʻrinish bilan bogʻlangan grammatik maʼnolarga ega boʻlishidir. Grammatik forma oʻzgaradigan soʻzlardagina ajratilib koʻrsatilishi mumkin . Oʻzgaradigan soʻzlarning grammatik formalari ikki va undan ortiq boʻladi. Bu formalar bir –biriga qarama –qarshi tursalar ham , ularning har bir nutqda oʻsha soʻzning nomoyondasi koʻrinishi sifatida qoʻllanadi. Soʻz oʻzining formalarida yashaydi , shu formalaridan biri shaklida qoʻllanadi, ayni zamonda soʻzning barcha grammatik formalarini birlashtiradi. Soʻzning formasi bevosita yangi soʻz yasalişini aks ettirmaydi. U soʻzning asosiy maʼnosi- leksik maʼno saqlanishini nazarda tutadi. Soʻz formasi leksik maʼnoga qoʻshimcha maʼno qoʻshilgandagina yuzaga keladi. Demak soʻzning formasi- uning leksik maʼnoni ifodalash bilan birga oʻzaro birikish chogʻida nutqdagi boshqa soʻzlarga munosabatini , aloqasini soʻzlovchining borliqqa munosabatini ifodalaydigan qoʻshimcha maʼnoga va shunga muvofiq shaklga kirishidir.

Maʼlumki, konkret olngan soʻz formasining affiksi oʻzgarmagan holda negiz qismi oʻzgarishi mumkin. Bunda leksik manolar har xil boʻlsa ham , grammatik maʼno bir xilligicha qoladi. Bunday paytada bitta soʻzning har xil grammatik formalari haqida emas , har xil soʻzning bir xil grammatik formasi haqida gapiriladi. Har xil soʻzning bir xil grammatik maʼnoga ega boʻlgan koʻrinishi tip forma yoki forma tipi deb ataladi. Shunday qilib soʻz formasi

(slovaforma) konkret olingan soʻzning nutqdagi koʻrinishi boʻlsa, forma tipi (tipoforma) har xil soʻzning maʼlum grammatik maʼnoga koʻra bir xil boʻlishidir.

Tilshunoslikda soʻzlar formali va formasiz turlarga ajratib kelinganligi maʼlum. Bunday klassifikatsiya grammatik forma faqat sintetik (affiks qoʻshish bilan yasalgan) boʻladi deb hisoblashdan kelib chiqqanligidan, nutqda shakli oʻzgarmaydigan soʻzlar formasiz deb hisoblanar edi. Bunda leksik va grammatik formalar, yaxlit oʻzgarmaydigan soʻzning oʻzi bilan ifodalanib soʻz yuqorida aytilganidek, oʻsha murakkab mazmunning formasi boʻlib qolaveradi. Shunday qilib nutqda oʻzgarmaydigan soʻzning koʻrinishi (formasi) nutqdan tashqaridagi koʻrinishiga teng kelishi mumkin.

1.3. Soʻzlarni guruhlashning asosiy tamoyillari

Tilning imkoniyat sifatida nutqda roʻyobga chiqishi, nutq orqali voqyeʼ boʻlishi - til va nutq dialektik munosabati soʻzda - til va nutq birligida amalga oshadi. Aniqrogʻi, til nutq orqali, nutq esa til boyligi (materiali) orqali namoyon boʻladi. Til boyligi esa, asosan, soʻzlar dan (leksemalardan) tashkil topadi.

Maʼlumki, soʻzning semantik strukturasi bevosita maʼno (semema) bilan bogʻlanadi, chunki semantik tuzilishga ega boʻlmagan maʼnoning oʻzi yoʻq. Har bir maʼno oʻz tarkibiga koʻra bogʻlanadi. U muayyan soʻzning mazmun tomonini hosil qilib, tovush asosi - ifoda tomonini tashkil etadi.

Tilshunoslikda ot turkumiga oid soʻzlarning oʻrganilishi oʻziga xos tarixga ega. N.K.Dmitriyev, A.P.Yakubinskiy, L.N.Xaritonov, N.F.Katanov, P.M.Melioranskiy, M.A.Kazembek, A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, S.N.Ivanov, P.I.Kuznesov, T.I.Grunin singari tilshunos olimlar otlarning oʻziga xos grammatik kategoriyalarga ega ekanligi, yasalish xususiyati, gap tarkibidagi sintaktik vazifasi haqida muhim fikr-mulohazalarni bildirganlar. Ye.D.Polivanovning «Kratkaya grammatika oʻzbekskogo yazika» (1926) kabi bir qator darslik va qoʻllanmalari nashr etilgan boʻlib, ularda boshqa soʻz turkumlari qatori ot turkumiga oid turkumidagi soʻzlarning grammatik belgilari haqida fikr beradilar.

Bir qator tilshunos olimlar ot sifat va son soʻz turkumlarini bir-biridan ajratmasdan, yaxlit holda oʻrganish tarafdori edi.

Ot, sifat va son soʻz turkumlaridagi umumiylik ularning gapdagi bajargan sintaktik vazifasi va birikma hosil qilishda toʻtgan oʻrni bilan aloqador. Sifat ham son kabi gapda koʻpincha aniqlovchi vazifasini bajaradi, ot turkumiga oid soʻzlardan oldin kelib, unga tobe boʻladi, otlarning «soʻzlararo turishlari» deganda ularning ana shunday gapdagi vazifasi va oʻrnini nazarda toʻtgan boʻlishi mumkin.

Soʻz mavjudod hodisa tushuncha va ularning xossalarini anglatuvchi til elementi. Soʻzning tovush va maʼno tomoni bor. Har qanday soʻz bir yoki bir nechta tovushlardan iborat boʻlib, shu tovushlar tufayli moddiy tus oladi, talaffuz qilinadi, eshitiladi. Lekin har qanday tovush yigʻindisi soʻz boʻlavermaydi. Tovush yoki tovush birikmasi soʻz boʻlishi uchun maʼnoga ega boʻlishi kerak , chunki soʻz tilning eng muhim nominativ birligidir. Chunki u borliqdagi narsa va buyumlarni predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni harakat nomi rang tus, maʼza tam , hajm miqdor, hislat kabi belgi hususiyatlarni nomlaydi (*tree* predmet nomi, *idea* mavhum tushunch nomi, *to work* harakat nomi, *big* hajm nomi *five* miqdor nomi). Bizga maʼlumki, soʻzlarga xos muhim belgilardan biri u yoki bu leksik grammatik guruhlariga mansub predmet nomlari ot turkumiga, belgi hususiyat nomlari sifat turkumiga , miqdor anglatuvchi soʻzlar son turkumiga, harakat –holat mazmunli soʻzlar feʼl turkumiga kiradi. Bunday mansublik soʻzlarning nutqdagi grammatik shaklini belgilaydi: otlar egalik, kelishik, koʻplik va birlik shakllarda, sifat darajalanish shaklida , feʼllar esa zamon , shaxs –son va mayl shakllarida qoʻllaniladi. Bu hol tilning leksik va grammatik shakllari oʻrtasidagi aloqadorlikni kelib chiqishga olib keladi. Tilning lugʻat boyligida bunday soʻzlar leksik birliklar sanaladi. Tilda nomlash hususiyatiga ega boʻlmagan ,binobarin leksik birlik sanalmaydigan soʻzlar ham bor. Ular faqat grammatik yoki modal maʼnolarni ifodalaydi, shunga koʻra grammatik soʻz yoki marfema soʻzlar hisoblanadi; yordamchi soʻzlar , modal soʻzlar taqlid soʻzlar undovlar, olmoshlar shular jumlasidandir. Bular tilshunoslikda ifodalovchi soʻzlar(undovlar, modal soʻzlar, yuklamalar)

ko'rsatuvchi so'zlar(bog'lovchilar, yuklamalar) olmoshlovchi so'zlar(olmoshlar) , atovchi so'zlar(atoqli otlarning ma'lum turlari) kabi guruhlarga ajratiladi. Leksik mazmunli so'zlar leksikologiyada grammatik mazmunli so'zlar grammatikada so'z turkumlari bilan bog'lab o'rganiladi.

So'zlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma , juft va takroriy so'zlarga bo'linadi.

Sodda so'zlar bir asosdan tashkil topadi , hech qanday qo'shimch qo'shilmaydi.

Masalan :High, short, tall, narrow, big ,small .

We walked through narrow street- Biz tor ko'cha bo'ylab sayr qildik

Sodda so'zlar o'z navbatida ikkiga bo'linadi: sodda tub va sodda yasama so'zlar. Sodda tub so'zlar- tarkibi asos va yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydigan so'zlardir, boshqacha aytganda tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan so'zlar tub so'zlardir. Sodda yasama so'zlar asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bunday qo'shimchalar suffiks, prefix va affiks lar deb nomlanadi, bunday so'zlar tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar ishtirok etadi. Bunday so'zlarni quyidagi gaplar asosida ko'rib chiqamiz.

Incorruptibility- ushbu so'zni asos va qo'shimchalarga ajratib chiqamiz: in-prefiks,corrupt-asos, ibility-suffiks

Unhappiest- un-prefiks,happy-asos, ist-suffiks

She didn't want to rememeber her unhappiest days⁹(ACIEM)

So'zning shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qismi asos deyiladi. Bir umumiy asosdan tashkil topgan so'zlar asosdosh so'zlar deyiladi

Masalan: gardening , gardener, garden

Qo'shma so'zlar bir necha asoslarning birikuvidan hosil bo'lgan ya'ni sintaktik usul bilan yasalgan so'zlardir: snowman, new year, sunglasses, blackboard

⁹ A.C.McCarthy" An Introdicyion to English Morfology:Words and their structure" Edinburg University Press,2001,p 72.

We celebrate every New Year with a snowman.(ACIEM)

Qo'shma so'zlar tarkibi turli so'z turkumlaridan tashkil topadi

Noun+noun earring, sunglasses, credit card film star, cheque
book, handcuffs, shoe horn, youth hostel, heart attack, tea bag,
assembly line, windscreen.

Verb+ preposition = check –out, turn over, break- out, fallout,
printout breakthrough.

Adjective+ past participle= well-dressed, never ending

Adjective+ noun= long-distance, last minute, part- time

Noun+ adjective= world –famous, duty-free, sugar-free

Qo'shma otlar ba'zida chiziqcha bilan ba'zan chiziqchasiz
yasaladi: pen- name, baby- sitter

Adjective+noun= alarm clock

Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra so'zlar ingliz tilida sinonim, omonim va antonimlarga bo'linadi. Shakli har xil lekin ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlar sinonim so'zlar hisoblanadi. Sinonim so'zlar qatorida leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil ifoda semalari, ma'no qirralari uslubiy, subyektiv baho qo'llanish doirasi har xil bo'ladi. Masalan beautiful, charmy, attractive semalari bitta denotatni – ya'ni *chiroyli* ma'nosini ataydi. *Plump, fat obese* so'zlarida ifoda semalari *plump*dan *obese* ga qarab darajalanadi. . Xuddi shuningdek qobiliyatni ifodalovchi *intelligent, bright, clever, smart talented, brainy, able gifted* kabi sinonim so'zlar qatorida dominant so'z clever sanaladi., *Stupid foolish halfwitted, silly, brainless, daft, dumb* sinonimik qatorida *stupid* dominant so'z hisoblanadi

Leksemalarda turkum semalari bir xil bo'ladi, bu hol sinonimlarni bir so'z turkumiga birlashishini taqoza qiladi. *Earth, ground, flat* ot so'z turkumi, *smart, clever, brainy* sifat so'z turkumi, *whisper, murmur, shout, yell* fe'l so'z turkumiga xosdir.

Jack is a seaman- Jack is a sailor

Bu gapda *seaman* va *sailor* sinonim soʻzlar hisoblanadi. Sinonimlar nafaqat ot soʻz turkumi doirasida boʻladi balki, sifat ,ravish, feʼl soʻz turkumi doirasida ham boʻlishi mumkin.

The rock is large.(big) (MHAGUp-6)

The train travelled fast.(rapidly) MHAGU p-81)

The bus left promptly at 10.(departed) MHAGU p-31)

Mr. Jenkins is our postman.(mailman) (MHAGU p-31)

Alice is skinny. (thin, slender)(ACIEM)

We had our valuables in the attic (*conceal*). Biz gapda yana quyidagi sinonim soʻzlardan mustaqil ravishda foydalanishimiz mumkin:

Ache- pain, center- middle, cord- string, dale-valley, error- mistake, force-strength, labour- work, pace- step, sight – vision.

Bir biriga zid maʼno anglatishiga koʻra soʻzlar antonim soʻzlarga boʻlinadi. Antonomiya hodisasi asosan bir soʻz turkumidagi soʻzlar doirasida yuz beradi.

Sifatlarda a) hajm belgisiga koʻra : short- tall, big-little,

b) *harorat belgisiga koʻra*: cold- hot,

c) *yosh belgisiga koʻra* : young – old,

d) *harakter-hususiyat belgisiga koʻra* : clever- silly,

e) *hajm- miqdor belgisiga koʻra* : much-little.

Antonomiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan boʻlib, ot va feʼllarda bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa deyarli uchramaydi. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari boʻyicha munozarali qarashlar mavjud boʻlib, xususan ayrim manbaalarda opa va singil , aka va uka , togʻ- xola kabi soʻzlar antonimlar deb atalgan. Shu soha boʻyicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib brogan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas balki ifrelyativ soʻzlar deb baholaydi , buni yuqoridagi soʻzlar leksemalarning maʼnolar qarama qarshi emas,balki bir biriga juda yaqindir deb asoslaydi. Shuningdek feʼlning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari ayrim adabiyotlarda antonimlarning alohida tipi deb ataydi. Masalan, ayt-aytma kabi soʻzlar biri ikkinchisining inkori ammo antonimi emas, aslida bular ikki leksema emas, balki bir leksemaning ikki koʻrinishidir.

Antonimiya esa ikki leksemaning o'rtasidagi ma'no munosabatdir. Antonimiya mezonini belgilashda C.Kriedler, Ye.D.Polivonovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinsiptiga ko'ra ikki ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha(mantiqiy markaz) aniqlanadi. Shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik muosabatlarda deb qaraladi.

Antonimik munosabatda bo'lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz bo'ladi-yu ammo uni nomlovchi so'zning o'zi bo'lmaydi. Masalan kulgu va yig'i leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus so'z tilda yo'q, ammo oraliq hodisaning o'zi bor, u kishining kulmasadan, yig'lamasdan turgan holatidir, demak ana shu holat mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi. Antonimlik asosan sifat so'z turkumi doirasida bo'ladi,shuningdek predloglar orasida ham uchrab turadi, keling buni gaplar misolida ko'rib chiqaylik:

The TV is on now- Televizor hozir yoniq

The TV is off now-Televizor hozir o'chgan. Ingliz tilidagi quyidagi o'lchov sifatleri antonimik qatorni tashkil qiladi:

Long-short- tall- short

High- low-wide- narrow

Old-young-deep-shallow

Old- new- thick- thin .

Bu birliklar so'zlar bilan birikib so'z ifodalarini hosil qildi: Masalan :nineteen years old girl, two metres high.

Shuningdek antonimlar binary va non-binary antonimlarga bo'linadi. Binary antonimlar darajalanish hususiyatiga ega bo'lmagan antonimlardir:

Masalan: open- shut, dead-alive, asleep-awake.

Non-binary antonimlar esa darajalanish hususiyatiga ega bo'lgan antonimlardir:

Masalan: old- young , wide- narrow,tall- short.

Shakli bir xil , ma'nosi har xil bo'lgan leksemalar omonimlar hisoblanadi. Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga oiddir. Shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. Omonimlar o'z navbatida

omofonlar va omograflarga bo'linadi . Omofonlar talaffuzi bir xil yozilishi har xil bo'lgan leksemalardir: air- heir, faze-phase, floe-flow. Omograflar esa yozilishi bir xil talaffuzi har xil bolgan leksemalardir:

wind-shamol, wind- to'g'rilamoq.

Ingliz tilida quyidagi so'zlar omofonlar hisoblanadi:

air- heir, faze- phase, groan- grown, might- mite, pane- pain, pray- prey, right-rite-write, sent- scent, steak- stake, tire- tyre, weather- whether, aloud- allowed, floe- flow, hoarse- horse mown- moan, peal- peel, raise- rays, rough- ruff, sight- site, tea- tee, toe- tow, whine- wine, flu- flew, its- it's, our- hour, reed- read, sole- soul, waist- waste, fare- fair, grate- great, pale- pail, scene- seen, wait- weght va boshqalar.

Shuningdek ingliz tilidagi omograflarni quyidagi misollar bilan ko'rib chiqamiz :

I live in the north of England-Your favourite pop star is singing live on TV tonight.(CHGEVO p-54)- Men Angliyada yashayman.-Mening sevimli musiqam bugun kechqurun dasturda beriladi.

I read in bed each night- I read War and Peace last year.(CHGEVO p55) Men har kuni kechqurun o'qiyman.-Men kecha "Urush va Tinchlik asarini o'qidim.

I bobga xulosa

So'z va uning lingvistik xususiyatlari yuzasidan bir qancha ta'riflar turli tilshunos olimlar tomonidan berilgan bo'lib, u hozirgacha o'z yechimiga ega emas, ya'ni bu masala to'laligicha o'rganilmagan va fanda o'z tasdig'ini topmagan So'zning ma'nosi turli davrlarda turlicha yondashilgan. So'zning ma'nosiga berilgan eng keng tarqalgan va qo'llaniladigan ta'rif mashhur Shvet tilshunosi F.de – Sossyur tomonidan berilgan bo'lib, u tilshunoslikda “semantik uchburchak” deb ataluvchi ta'rifni bergan. F.de – Sossyurdan tashqari nemis olimlari G.Paul, E.Vellander, Shperber. Ingliz olimi S.Umann, rus olimlari V.V.Vinogradov kabi ko'plab tilshunoslar so'zning ma'nosiga ta'rif berib o'tganlar. Ularning fikrlariga asoslangan holda biz ham so'zning ma'nosiga ta'rif berishga harakat qildik va biz

bunda soʻzda shakl va maʼno muhim rol oʻynashiga eʼtiborimizni qaratdik. Shuningdek soʻzlarni guruhlash va ularning semantik ahamiyatini atroflicha oʻrganish muhim ahamiyat kasb etishini tahlil qildik.

Soʻzning semantik strukturasi bu maʼlum bir soʻzning bir necha maʼnolarining yigʻindisidir, yaʼni maʼlum soʻz bir necha maʼnolarni ifodalash mumkin va oʻsha maʼnolar. Soʻzning semantik strukturasi tashkil qiladi. Soʻzning semantik strukturasi oʻrganishda biz soʻzning maʼno jihatidan tuzilishiga eʼtibor qarataramiz, soʻzlarning bir maʼnoli (monosemantik) va koʻp maʼnoli (polisemantik) qismlarini ham koʻrib chiqamiz..

Soʻzning semantik strukturasi ochib berish ancha murakkab hodisadir. Chunki polisemantik soʻzlar ikkitadan yuztagacha boʻlishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “to sat” feʼlining semantik strukturasi biz yuzta maʼno mujassam ekanligini koʻrashimiz mumkin. Shu sababdan ham, koʻrinadiki polisemantik soʻzlarning semantik strukturasi oʻrganish ancha murakkab hodisadir.

Polisemiya soʻzining semantik strukturasi muhim ahamiyat kasb etadi. Polisemiya bu aynan bir soʻzning ikki yoki undan koʻp maʼnoga ega boʻlishidir. Polisemiya tashqi koʻrinish jihatidan juda oʻxshash boʻlgan yana bir hodisa omonimiya ham tilshunoslikda oʻz oʻrniga egadir. Omonimiyada shakliy talaffuz jihatdan bir xil maʼno jihatdan bir – biridan farq qiluvchi eng asosiy xususiyati shundan iboratki, polisemiya maʼlum soʻz bir nechta maʼnoga ega boʻladi va shu maʼnolar bir – biriga bogʻlangan yoki aloqador boʻladi, lekin maʼno jihatidan soʻzlar bir – biridan farq qiladi. Demak, polisemiya soʻzlar bir – biriga aloqador boʻlgan soʻzning maʼnolaridan, omonimiyada esa soʻzlar faqat shakl jihatidagina bir – biriga teng boʻlgan soʻzning maʼnolaridan tashkil topadi.

Bundan koʻrinadiki maʼlum bir soʻzning semantik strukturasi oʻrganilayotgan paytda polisemantik va omonim soʻzlar bir – biridan farqlash lozim, chunki soʻzning semantik strukturasi oʻrganishda omonimiyaga emas, balki asosan polisemiya tayanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarimizni jamlangan holdagi soʻzning maʼnosi, uning semantik strukturasi, polisemiya va omonimiya leksikologiya fanining

semantika bo'limini o'rganishda, unda ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borishda ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, ular hali to'laligicha, batafsil o'rganilmaganligini ta'kidlab o'tadi.

II BOB. Mavhum otlarning semantik xususiyatlari


2.1 Mavhum otlarning semantik qatlamda o'rganilishi

“Semantika” so'zi lotincha “semantikos” va fransuzcha “semantique” so'zlaridan olingan bo'lib, “ifodalovchi” degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda bu so'z ma'noda qo'llanadi: a) til birliklarining mazmun, ma'no tomoni; b) lug'aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi soha – semasiologiya. Bundan ko'rinadiki, tilshunoslikda semantika fani til birliklarining mazmun tomonini o'rganadi va tadqiq etadi. Semantika atamasini tilshunoslikka ilk bor 1897-yilda fransuz tilshunoslari tomonidan kiritilgan bo'lib, XIX asr oxiriga kelib lingvistik semantika mustaqil fan sifatida shakllangan.

Hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan “so'zlarning semantik strukturasi” atamasi so'zlarning ma'nolari va ularning boshqa so'zlar bilan bog'lanishida muhim rol o'ynaydi. “So'zning semantik strukturasi” atamasi metatil sifatida, til birligi sifatida, so'z tarkibining eng kichik birliklari majmui sifatida, o'zaro aloqador bo'lgan birliklarning tuzilish natijasi sifatida, tub va yasama so'zlarni tashkil qiladigan element sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchidan, “so'zning semantik strukturasi” atamasini yasama so'zlarning strukturasi sifatida o'rganamiz.

Ikkinchidan, bu atama, ko'p ma'noli so'zlarning shakliy – mantiqiy ma'nolarini tashkil etadigan, ularning belgi va tushunchalarning birlashtiruvini bildiradigan ko'p ma'noli so'zlarga nisbatan qo'llaniladi.



The assassin of Thwacklehurst escaped.(CHIEL.p-3)

Tvecklehurst qotili qo'lga olindi. Bu gapda 'assassin' so'zi qotil ma'nosini ifodalab kelmoqda.

So'zning morfologik strukturasi so'z shakllari yig'indisidan tashkil topadi, so'zlarning semantik strukturasi esa so'z ma'nolari majmuidan tashkil topadi. Masalan, o'zbek tilidagi "stol" leksemasining semantik strukturasi quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) stol – "uy jihozi"; 2) stol – "yegulik, ozuqa, ovqat"; 3) stol - "idora, muassasa" (passport stoli); Ingliz tilidagi "Stol" so'zining ekvivalenti bo'lgan "a table" so'zining semantik strukturasi esa quyidagi ma'nolarni kuzatishimiz mumkin: 1) table – (piece of furniture consisting of a flat top with (usually four) supports called legs) – (to'rta oyoq va tekis yuzadan tashkil topgan) uy jihozi; 2) table – (people seated at a table) – (stol atrofidagi) kishilar; 3) table – (food provided at a table) stoldagi yegulik; 4) table – (list of order arrangement of facts, information, etc. (use in column)) - tablitsa, jadval.

Uchinchidan, so'zlarning "semantik strukturasi" atamani antologik jihatdan emas, balki metodik jihatdan tushunish xuddi ko'p ma'noli yoki bir ma'noli so'zlarga o'xshab so'z ma'nosining eng kichik mantiqiy qismi semalar bilan bog'liqdir.

"So'zlarning semantik strukturasi" atamasini bu tarzda tushunish so'zlarning tarkibini tahlil qilish metodikasiga xosdir. Masalan, ingliz tilidagi " youth" (yosh) leksemasini quyidagi semalarga ajratishimiz mumkin: "jonlilik", "shaxs", "erkak jinsi", "yosh", (o'smir) Shuningdek quyidagi jadval orqali so'z ma'nolari qanday semantikasi ifodalab kelayotgannini to'liq tushinishimiz mumkin:

parent husband baby child widow student

Animate	+	+	+	+	+	+	+
Human	+	+	+	+	+	+	+
Male	+	+/-	+	+/-	+/-	-	+/-
Female	-	+/-	-	+/-	+/-	+	+/-
Young	-	-	-	+	+	-	+
Married	+/-	+/-	+/-	-	-	-	+/-

To'rtinchidan leksikologiya fanida so'zlarning ma'no strukturasi atamasi ikki tilli va izohli lug'atlarda metatil sifatida ishlatiladi.

Va nihoyat, hisob bo'yicha so'ngisi "so'zlarning semantik strukturasi" atamasi leksik – semantik turlanish tushunchasi bilan bog'liqdir. So'zni o'zining turli shakllari yig'indisi sifatida tushunish so'zning ifoda plani va mazmun plani assimetriyasi, so'zning ko'p ma'noligi nafaqat bir –biriga aloqada bo'lgan ma'nolarning yig'indisi, balki uning aniq ierarxik jihatdan ma'noning asl ma'nosiga asoslanganligi va semantik jihati so'zning semantik strukturasi bir – biriga aloqador bo'lgan leksik – semantik variantlari yig'indisidan iboratdir. Shu o'rinda akademik V.V.Vinogradov ham so'zning shakl (forma) tushunchasi so'zning o'xshashligini aniqlashga asoslanganligini ifodalaydi.

Har qanday so'zning semantik strukturasi aniqlash nafaqat uning tushuncha (mazmun) plani so'zning strukturaviy tahliliga, balki tilning ifoda va qo'llanilishida paydo bo'ladigan shart – sharoitlar, shakl va vositalarga ham bog'liq bo'ladi.

"So'z ma'nosi" va "so'zning leksik – semantik variant" tushunchalari mazmun planida bir – biriga o'xshash bo'lsada, ifoda planida bir – biridan farq qiladi, chunki so'zning leksik – semantik variantida asosiy o'rnini shakl (forma) egallaydi.

Til mazmunining leksik – semantik fonida faqatgina o'z ichiga forma (shakl), ma'no va qo'llanilishi birlashtiruvchi til birliklari sifatidagi so'z doirasi aniqlanadi.

Mazmun jihatdan so'zning semantik strukturasi shunday sistema (tizim) ni tashkil qiladiki unda alohida leksik –semantik variantlarning mustaqillik (erkinlik) darajasi va umumiy qo'llanilishi sferasi so'zning shakli (formasi) bilan ma'nosi va berilgan so'zning semantik kontekst tizimini shakllantiruvchi semantik kontekst tizimini shakllantiruvchi semantik ifodasidan tashkil topgan so'zlar bilan aloqasini xarakteriga bog'liqdir.

I found great joy in loving (CHBJE 34) – Men sevgidan buyuk quvonch oldim. Bu gapda joy- quvonch , hursandchilik mavhum oti ishtirok etib , gapning mazmuniga xos tarzda semantik ahamiyat kasb etmoqda.

Who gave permission for that and by what authority?(CHBJE 16)- Bunga kim va qaysi jamiyat ruhsat berdgan?

Yuqoridagi gapda permission mavhum oti qatnashmoqda. Ushbu gapda ruhsat ma'nosida gap mazmunin tashkil qilmoqda.

I told her all the story of my childhood(CHBJE 56)- Men unga yoshligim tog'risidagi hikoyani so'zlab berdim.

Her face became lit with beauty (CHBJE 67)- Uning yuzi go'zallikdan charog'on edi.

Bu gapda esa beauty mavhum oti yuz so'zi bilan birikib gap mazmunini ochib bermoqda., va o'z ma'nosida kelmoqda.

Bunda ma'no deyilganda so'zning o'z ma'nosi va uning ko'chma ma'nosi nazarda tutilgan. Buyuk rus tilshunos olimi akademik V.V.Vinogradov so'zdagi turli ma'nolarning birlashish usullari va so'zning qo'llanilishi qonuniyatlari ustida amalga oshirgan tadqiqotlari natijasida neytral so'zning leksik ma'nosi tiplaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaga keladi:

1) So'zning nominativ ma'nosi bu so'zning boshqa ma'nolarga asos (manba) bo'ladi.

2) So'zning asosiy nominativ ma'nosiga nisbatan uning barcha boshqa ma'nolari undan kelib chiqqan bo'ladi (masalan "shapka" – bosh kiyim, "shapka" – sarlavha).

3) Asosiy ma'noga dahldor bo'lgan frazeologizmlar asosiy ma'nodan farq qiladi (masalan, kayfiyat tushmoq – metroga tushmoq).

4) Sintaktik jihatdan so'zlarda shakllanayotgan ma'no tillari gap tarkibida qat'iy belgilangan funksiya asosida mustahkamlanadi.

5) Ma'noning konstruktiv shaklanishi va konstruktiv sharoitlari sferasi ancha murakkab hodisa hisoblanadi.

Yagona til doirasidagi semantik struktura soʻzning u yoki bu soʻz turkumiga daxldorligiga bogʻliq boʻladi, shu sababdan ot va feʼl, sifat va olmosh soʻzning semantik strukturasi turli soʻz turkumlarining kontekstual tobelik – darajasini belgilaydi, konteks tiplari quyidagicha boʻladi: leksik, sintaktik, leksik – sintaktik.

Soʻzning maʼnoviy strukturasi soʻzning belgilash maʼnosiga asoslangan mantiqiy – predmet mazmuniga bogʻliqdir, shu sababli ham soʻzning semantik strukturasi yoritib berish har bir soʻz turkumining ichidagi turli xil paradigm va kichikroq guruhlarini hosil qilishga yordam beradi. Bular quyidagilardir: konkret (abstrakt leksika, sifat xususiyatlari) sonini ifodalanishi obyekt – subyekt obyekt – subyekt, subyekt – obekt feʼllari, borliq kategoriyasi va boshqalar.

Bunga misol tariqasida ingliz tilidagi “Field” leksikasining maʼnoviy strukturasi keltirishimiz mumkin va bu 6(olti) ta chegaralangan leksik – semantik variantlarni tashkil etadi:

1) “Field” soʻzining tashqi koʻrinishi I – leksik – semantik variant boʻladi, yaʼni bunda “daraxtlardan holi boʻlgan tekislik hududi” sifatida tushuniladi. Bunda maydonning tashqi koʻrinishi ((landshaft) (somber field)), uning yuzasi harakter xususiyatini (swelling, swamped field) ifodalaydi.

2) “Field” oti sifat bilan birikib, “ishlov beriladigan yoki yetishtiriladigan maydon” (II – leksik – semantik variant) tushunchasini bildiradi, bunda maydonning tabiiy, fizik xususiyatlari (soft, wet, virgin, plowed, wanton field), qanday yetishtirilishi mumkin (field of wheat, of rye, of cotton)ligi xususiyatlarini koʻrsatadi.

3) “Field” leksemasining III – shaxs leksik – semantik variant uning tor doirasidagi tushunchasi – paydo boʻlish, mavjudlik, yoki tugʻilgan joy sifatida keltiriladi va u hamisha koʻplikda qoʻllaniladi: gold fields, coal fields, oil fields.

4) “Field” leksemasining IV leksik – semantik variant sport atamasi sifatida mavjuddir: a jumping field (sakrash maydonchasi), a football field (futbol maydoni), a cricket field (kriket oʻynaladigan maydon) va boshqalar.

5) “Field” leksemasining ingliz tilidagi yaʼni bir leksik – semantik variant bu

“ma’lum bir narsaning chegarasini bildiruvchi” atamalardir, masalan, electric field (elektr maydoni), magnetic field (magnit maydon) va boshqalar.

6) Va nihoyat, “Field” leksemasining so’ngi leksik – semantik variant jang maydonini anglatadi, masalan, bloody (qonli), hard – sought field (og’ir jang maydoni), field of battle (jang maydoni) va boshqalar.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan kelib chiqqan holda xulosa sifatida predmet, leksemalarning leksik mazmunda chatishish natijasi va til shart – sharoitlari va vositalari realizatsiyasi bir xil ko’rinishda bo’lishi va bu asosan kontekstning leksik tipida sodir bo’lishini ta’kidlash joizdir.

So’zning semantik strukturasi so’zning leksik semantikasining chatishishini natijasi sifatida o’rganar ekanmiz, bunda dinamikasi jarayonini namoyish etgan holda so’zning sinxronik va diaxronik o’xshashligini kuzatishimiz mumkin. Predmet nomining semantik strukturasi aniq chegaralariga egadir, va bu chegaralar leksik kontekstda yaqqol namoyon bo’ladi, va bu metadil, definitsiya terminlari orqali aniqlanishi mumkin.

Mavhum otlarning semantikasi tushuncha asosi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ancha murakkabroq, ancha noaniqroqdir, Ma’lum shaxs, predmetga tegishli bo’lgan belgi, xususiyat tushunchasini ifodalaydi ekan. So’z belgilarining virtual va aktuallik dixotomiyasi nafaqat so’zning strukturaviy xususiyatlarini ochib beradi, balki so’zning umumiy va konkret, tub (berilgan) va yangi, doimiy(o’zgarimas) va o’zgaruvchan singari gnoseologik kategoriya qutblari orasidagi tendentsiya va chegaralarni ajratib ko’rsatadi.

Bundan tashqari mashhur rus tilshunos olimi A.A.Shaxmatov otga ta’rif berar ekan quyidagilarni ta’kidlab o’tadi: “Ot bu shunday so’z turkumiki, u substansiya (borliq) haqidagi tushuncha ifodalaydi”.

Otning bunday xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikda turli xil atamalar bilan ataladi: “substansiya ” va boshqalar.

Bizga ma’lumki, generativ semantika, uning butun nazariyalari har bir chaqiruvchining kontekstdagi duch keladigan til faktlarining barchasini to’la ochib bera olmaydi.


Nima bo'lgan taqdirda ham "presuppozitsiya" o'zining mantiqiy jihatlari bilan kontekst implikatsiyasidan farq qilishi lozim. "Presuppozitsiya" tushuncha tilning nominativ birliklari bilan qo'llaniladi, yoki presuppozitsiya haqiqat yoki yolg'onli ifodaga qaratilgan butun (to'liq) gapni yoki gap qismining "mantiqiy bog'liqligi"ga nisbatan qo'llaniladi. Presuppozitsiya fenomenini gapning kommunikativ jihatidan tushunarliqligi – tushunarsizligi bilan bog'liqdir.

So'zning semantik strukturasi leksik birliklarining diaxronik va sinxronik chatishishi natijasida o'rganar ekanmiz, biz bunda so'zlarning erkin va chegaralangan leksik aloqalari nutqda har safar ham yangidan paydo bo'lavermasligini kuzatamiz, va ular har tarixiy davrda quyidagi sistematik koordinator bilan aniqlanadi; so'zlarning nominativ ma'nolari uning leksik va sintaktik aloqadorlik modellari tarixan rivojlanib borgan so'zlarning semantik birikishi (birlashishi) yig'indisi kabi. Tilning obyektiv – subyektiv xususiyati so'zni tilning nominativ (nomlash), bilish, kommunikativ (aloqa), pragmatik kabi asosiy funksiyalarini bajarishni ta'minlaydi. So'zning sinxron o'xshashlik hodisasi so'zning semantik ichki tuzilishi jihatidan chegaralanishi nuqtai nazaridan o'rganiladi va bunda so'zning semantik ichki tuzilishi jihatdan ingliz tilidagi leksik va sintaktik bog'langan eksemalarining xususiyatiga ko'ra asosan ikki yo'nalishdagi leksik – semantik chatishuvi kuzatiladi.

Biz bu yerda nominativ birliklarning xususiyatlari haqida o'zida ikki semantik (yo'nalish) sferasi-leksemalarning subyekt sferasi va obyekt sferasi mavjud ekanligini ko'rdik. Ikki sferali otarning tub nominativ ma'nosini so'zning obyektiv sferasiga, ot leksemalarning ko'chma ma'nosi esa otning subyekt sferasi hisoblanadi va ular otarning obyektiv –subyektiv semasiologik sinfini tashkil qiladi. Masalan, ingliz tilidagi Consider Oxford English Dictionary lug'atida berilgan otlarning taxminan 40%i mavhum otlardir. Bundan ko'rinadiki so'zlarning semantik strukturasi o'rganishda otlarni alohida o'rganish zarur. So'zning semantik strukturasi o'rganar ekanmiz, biz bu yerda qo'llaniladigan metodlardan ham xabardor bo'lishimiz lozim. So'zlarning semantik strukturasi o'rganishda asosan uch metod mavjud. Birinchi metodga ko'ra so'zning semantik

strukturasi uning morfemik yasalihi bilan bog'lanadi, ya'ni bunda so'zning semantik strukturasi o'rganishda uni morfemalarga ajratib o'rganiladi. Ikkinchi metod so'zning semantik strukturasi, uning sintaktik ishlatilishi bilan bog'liq ravishda tekshiriladi. Uchinchi metod esa so'zning semantik strukturasi alohida, tilning shu so'zni o'z ichiga olgan leksik –semantik guruhi doirasida qaraydi. Bu uch metod birlashtiruvchi umumiy xususiyat shuki, so'zning semantik strukturasi til leksik tizimining elementi sifatida qaraladi, bu so'zning nutqda, konkret situatsiya ishlatilishi tomonini aks ettirmaydi.

Shu tufayli, keyingi davr tilshunosligida so'zning semantik strukturasi til belgisining funksional ishlatilishi bilan bog'liq holda tadqiq qilinmoqda. Bunda “semantik uchburchak” deb ataluvchi tushunchadan foydalaniladi. “Semantik uchburchak” so'z fonemalarining yoki yozuvdagi grafemadalarining (harflarning) yig'indisi ekanligi bilan uning signifikat aloqasi nazarda tutiladi. So'z semantikasining nutqda ishlatilishi hisobga olinsa, bir yo'la fonetik va denotat tomoni o'rtasidagi aloqaga asoslaniladi. Ferdinand de – Sossyurning ta'limotida so'zning ifoda (akustik obrazi) va ma'no jihati ko'rsatilib, ma'no denotat (predmet) o'rtasidagi aloqa ochilmay qolgan edi. Buyuk tilshunos olimlar Martin va Oden o'zlarining sxemasi orqali so'zning semantikasi tushuntirib berganlar. Yuqorida ta'kidlangan so'zning “semantik uchburchak” sxemasi quyidagicha ko'rinishga ega.



Demak bu sxema orqali so'z, narsa va tushunch aynan so'z semantikasini aniq ifodalab beradi. Tilga belgilar sistemasi sifatida qarash natijasida paydo bo'lgan semiotik yo'nalish birlamchi (so'z va so'z birikmasi) va ikkilamchi (frazaga gaplar) belgilarni farqlaydi. Ularning birlamchilari – nominativ, ya'ni bir nom

bilan atash va ikkilamchilari – predikativ, ya’ni fraza va gaplar tarkibida ishlatish funksiyasi deb yuritiladi. Nominativ belgilar tildagi paradigmatic aloqalarga asoslansa, predikativ belgilar esa sintagmatikaga ya’ni, fraza va gaplarning nutqda ishlatilish tomoniga asoslanadi.

Ko’rinadiki, tilning leksika va semantikasini o’rganishda ikki yo’nalish mavjud bo’lib, ularning birinchisi faqat leksik – semantik xususiyatlar bilan ish tutsa, ikkinchi yo’nalish tilning belgilar yig’indisi (semiot sistema) ekanligiga asoslanadi. Biroq har ikki qarashning ham obyekti va vazifalari bir – biri bilan bog’liqdir. So’zning semantik strukturasi so’zlashuvi situatsiyasida yoki kengroq ochiladi.

Demak, so’zning semantik strukturasi o’rganar ekanmiz, albatta biz har bir so’z ishlatiladigan kontekstdagi yoki situatsiyasida ifodalaydigan ma’nosi o’sha kontekst yoki situatsiyadagi qo’llanilishi ahamiyati yuqori ekanligiga urg’u berishimiz lozimdir. Shu o’rinda, so’zning semantik strukturasi tadqiq etar ekanmiz, dastlab leksik (lug’aviy) birliklarning semantik strukturasi tahlil qilishimiz joizdir. Chunki so’z asosan lug’aviy birliklarning tildagi ifodasidir.

Lug’aviy birlik sifatida so’zning, iboraning avvalo ma’no turlari tasvirlanadi, keyin semantik strukturasi o’rganiladi.

Har bir so’z muayyan ma’no anglatadi, ammo bu ma’no barcha so’zlarda birdek emas. Shu jihatdan so’zlar bir necha guruhlariga birlashadi. So’zlarning ma’no turlari odatda so’z turkumlariga bog’lab o’rganiladi. So’zlarning ma’no turlari asosan quyidagicha:

1) Nomlovchi so’zlar. Bu ma’no turiga ot (ba’zi atoqli otlardan tashqari), fe’l sifat, ravish, son kiritiladi. Bular predmetni, harakatni va shularning turli – tuman belgilarini nomlaydi: *paper*, *to read thin, slowly, five* kabi.

2) Ifodalovchi so’zlar. Bu ma’no turiga modal so’z va yuklama kiritiladi: *oh, really* kabi.

3) Ko’rsatuvchi so’zlar. Bu ma’no turiga olmosh, bog’lovchi va ko’makchi kiritiladi: *and, with, without* kabi.

Ikkinchi va uchinchi tur soʻzlarda nomlash maʼnosi yoʻq; bir xillari bevosita xis –hayajonni, fikrga munosabatini koʻrsatish uchun xizmat qiladi (bogʻlovchi, koʻmakchi).

Uchinchi maʼno turlicha alohidalik olmoshlarda uchraydi. Olmosh mustaqil soʻz turkumlaridan biri deb qaralsa – da, muayyan lugʻaviy mazmunga ega boʻlmaydi. U bunday mazmuni oʻzi ishlatiladigan kontekstda, nutq situatsiyasida oladi.

Atoqli otlarning maʼlum turlari ham alohidalikka ega. Jumladan, kishi, hayvon, parranda va narsalarga berilgan ismlar biror maʼnoni anglatish uchun emas, balki faqat atash uchungina xizmat qiladi. Masalan, toʻlqin soʻzi nomlash orqali maʼlum bir hodisani anglatadi (“suv sathining koʻtarilishi va tushishi asosida hosil boʻladigan tebranishlar”); Toʻlqin ismi esa faqat ataydi, leksik maʼno anglatmaydi, shunga koʻra u shartli; istalgan kishini Toʻlqin deb atash mumkin, ammo istalgan hodisani toʻlqin deb nomlab boʻlmaydi.

Demak atoqli otlarning ayrim turlari leksik mazmunga ega boʻlmaydi, leksik maʼno anglatmaydi. Shu jihati bilan ular turdosh otlardan, shuningdek, nomlovchi boshqa turkum soʻzlaridan keskin farqlanadi.

Umuman, yuqoridagi uch maʼno turidan leksikologiyada asosan nomlovchi soʻzlar oʻrganiladi. Biz yuqorida leksik birliklarining semantik strukturasi koʻrib chiqdik va leksik birliklarning semantik strukturasi oʻrganish soʻzning semantik strukturasi oʻrganishda ahamiyati yuqori ekanligini kuzatdik. Endi soʻzning semantik strukturasi oʻzini qisqacha tahlil qilamiz.

Lugʻaviy birlikning semantik strukturasi ikki hodisa farq qilinadi: ligʻaviy maʼno va stilistik boʻyoq. Bundan keyin lugʻaviy maʼno soʻz nisbatan leksik maʼno deb, iboraga nisbatan esa frazeologik maʼno deb ataladi.

Soʻzni gavidalantirgan tovushlar tizimni voqelikka nisbatan beriluvchi lugʻaviy mazmuniga (nimadir nomlashi, ifodalashi, koʻrsatishicha) leksik maʼno deyiladi. Masalan, bahor soʻzi “qish bilan yoz oʻrtasidagi fasl”, maʼnosini, daryo

so'zi "suv oqadigan katta soy" ma'nosini, qora so'zi "oq rangning zidi bo'lgan rang", besh so'zi "to'rt va olti orasidagi son.

So'zning leksik mazmuni bilan so'z bildiradigan voqelik boshqa – boshqa hodisalardir. Lekin so'zdagi leksik ma'no bilan u anglatadigan tushuncha orasida bir – birini bog'lab turuvchi ma'no mavjud. Shunga ko'ra odatda leksik ma'no deb shu so'z anglatgan tushuncha ta'kidlanadi.

Leksik ma'no tushuncha o'zaro uzviy bog'liq, lekin shu asosda bularni butunlay tenglashtirish to'g'ri emas. Leksik ma'no bu lingvistik harakterdagi hodisa, tushuncha esa tafakkurga bog'liq hodisadir. Leksik ma'no bu har bir tilning o'ziga xos bo'lgan hodisa va shuning uchun leksik ma'no har bir til uchun odatda individual hodisa sifatida o'z aksini topadi. Masalan, bir tushuncha – "qarash organi" tushunchasi rus tilida "глаз" so'zi bilan o'zbek tilida "ko'z" so'zi bilan, ingliz tilida esa "eye" so'zi bilan ifodalanadi. Shu jihatdan teng keluvchi bu so'zlar o'z leksik ma'nolari bilan keskin farq qiladi.

Ingliz tilida bu "qarash, ko'rish organi", rus tilidagi ushbu so'z quyidagi ikki asosiy ma'no ko'rsatiladi; 1) "qarash organi", 2) "nadzor", "kuzatuvchi". O'zbek so'zi uchun bu ma'nolar (ko'zim ko'rmaydi. Har ishda o'z ko'zing bo'lgani yaxshi) dan tashqari, yana quyidagi leksik ma'nolarni ko'rsatish mumkin: tizzaning ko'zi, taxtaning ko'zi, buloqnong ko'zi, ignaning ko'zi, yaraning ko'zi, hurjunning ko'zi, uzukning ko'zi, derazaning ko'zi, kartoshkaning ko'zi. Bu ma'nolar rustilida откуда бьётродник, отдельностекло, глазки картофеля kabilar. Ingliz tilida esa quyidagicha: kneecup (tizzaning ko'zi), knot (yog'ochning ko'zi), the month of the spring, an eye of needle, windowpane (derazaning ko'zi).

Ko'rinadiki, ayni bir tushuncha turli tillarda turlicha ma'noga ega va turlicha ifodalanadi. Ayni tushunchani anglatuvchi ma'nolar har bir tilda har xil leksik tizimlarga birlashadi va shunga ko'ra og'zaki nutqda qo'llanilishi ham turlicha bo'ladi.

So'z bilan tushuncha orasidagi munosabat ancha murakkab. Bir tomondan so'z ma'lum ma'noni bildiradi, lekin tushuncha anglatmasligi mumkin. Ikkinchi tomondan, bir so'z bittadan ortiq tushunchani ifodalashi mumkin; ko'p ma'noli

so'zning har bir leksik ma'nosi ayrim – ayrim tushunchani anglatadi. Bir necha tushunchani anglatish bir so'z sohalarining termini bo'lganida yaqqol namoyon bo'ladi.

Biz atamaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, lug'aviy mundarijasi aniq ta'riflangan, ishlatilishi ma'lum doira bilan chegaralangan so'zga yoki leksik ma'noga atama deyiladi.

Atamalarning kishilar tomonidan turli sohalarda ko'p martalab ishlatilishi natijasida ham atamalar o'z sohasidan boshqa sohalardagi ma'nolarni anglatuvchi oddiy, ya'ni atama bo'lmagan so'zlarga ham aylanib ketadi. Masalan, hozirgi kunda juda ko'p ishlatilayotgan *avtomatlashtirish*, *kompyuterlashtirish*, *kserokopiyakabi* so'zlarini turli sohalarda ommaviy ravishda ishlatilayotganligi sababli ularning atama ekanligi nazardan chetda qolmoqda.

So'zning semantik strukturasi, lug'aviy ma'nodan tashqari, stilistik bo'yoq ham mavjuddir. Stilistik bo'yoq deyilganda so'zning yoki leksik birlikning o'z ma'nosidan tashqari uning boshqa ma'nolarini o'zida mujassamlashtirish tushuniladi. Ya'ni so'z ma'lum kontekstda o'zining bosh ma'nosidan ma'lum darajada farq qiluvchi butunlay qarama – qarshi ma'noni ifodalaydi. Masalan, qiz va qizcha (qizaloq), so'zlarining leksik ma'nosi bir xil, stilistik bo'yog'i esa farqlidir, qiz so'zining semantik strukturasi stilistik bo'yoq betaraf (neytral): anglayotgan predmetga shaxsning ijobiy salbiy munosabat mavjud emas. Qizcha (qizaloq) so'zida esa munosabat yaqqol ifodalangan bo'lib, bunda neytralma'nodan tashqari so'zga bo'lgan munosabat, ya'ni bunda kichraytirish – erkalash ma'nosi o'z ifodasini topgan. Yoki bunga shu so'zning inglizcha ekvivalenti bo'lgan *girl* so'zi ham misol bo'lishi mumkin (a girl – girly).

Lug'aviy birlik (so'z)ning semantik strukturasi ikki hodisa farq qiladi; lug'aviy ma'no va stilistik bo'yoq. Lug'aviy ma'no haqida biz yuqorida ta'kidlab o'tdik. Stilistik bo'yoq har doim leksik ma'noga tayanadi, leksik ma'no asosida rivojlanadi, uni o'rab, qamrab oladi. Lug'aviy ma'nosiz stilistik bo'yoq paydo bo'lmaydi.

Stilistik bo'yoq asosan uch xil ifodalaniladi:

a) ma'lum morfema yordamida, ya'ni morfologik yo'l bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon o'zbek tilida bunday vazifani – *ga*, - *gina*, - *jon*, - *chak*, -*choq* morfemalari orqali bajaradi. Ingliz tilida esa – *ly* (*girly*), - *less* (*bloodless*) morfemalari orqali ifodalanadi. Bunday morfemalar erkalash, kichraytirish kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

b) Stilistik bo'yoq so'z negizini o'zi bilan ifodalansa leksik ifodalanishi deyiladi.

Bunday stilistik bo'yoq ko'pincha so'zlarning o'zaro semantik munosabatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *yuz*, *bet*, *bashara*, *aft*, *chehra*, *turq* so'zlari ayni bir leksik ma'noni bildiradi, lekin bularda stilistik bo'yoq turlichadir. Yuqorida keltirilgan so'zlar ichida stilistik bo'yog'i eng betarafi (neytrali) bu *yuz* so'zidir, ikkinchi so'z esa *bet* so'zidir, qolgan hamma so'zlar stilistik o'zida mujassamlashtirgan. Yoki ingliz tilidagi *to win*, *to beat*, *to overcome* fe'llari o'zbek tilidagi *yengmoq*, *g'alaba qilmoq* (*qozonmoq*), *etmoq*, *yutib chiqmoq* leksik ma'nolarini ifodalaydi. Bu so'zlar ichida eng stilistik bo'yog'i betaraf bo'lgan so'z bu *to win* fe'lidir. Qolganlari esa stilistik bo'yoqni o'zida mujassamlashtiradi.

c) Kontekstual ifodalanishda stilistik bo'yoq betaraf so'z o'rnida boshqa bir leksik ma'no ishlatiladi. Masalan, *bosh* va *kalla* esa hayvon organizmiga nisbatan ishlatiladi. *Kalla* so'zi insonlarga nisbatan qo'llanilganda u stilistik bo'yoqqa ega bo'lib, salbiy ma'noni bildiradi.

Kontekstual ifodalanishning bir turi deb stilistik bo'yoqning situativ ifodalanishini ko'rsatish mumkin. Situativ ifodalanishda konkret nutq situatsiyasidagi holat nazarda tutiladi. Bunda turli stilistik usullar – *metafora*, *metonimya*, *sinekdoxa* va *boshqalar* qo'llanilishi mumkin. Masalan, *Devonai*

Mashrab ham tashrif buyuradilarmi?! (she'riyatni sevuvchi kishiga nisbatan).

Bunday hollarda ko'pincha ko'chma ma'noda situativ ifodalanishda qo'llanilgan so'zlar qo'shtirnoqqa ham olinishi mumkin. So'zning semantik strukturasi bog'liq holda leksik qo'llash ham e'tirof etiladi. Leksik qo'llash

ba'zan leksik ma'noga qarama – qarshi bo'ladi. Leksik ma'no bilan leksik qo'llash bir – biridan quyidagilar bilan farq qiladi:

a) leksik ma'no til birligidir (lug'aviy birlik); shu tilda gapiruvchilar tomonidan tanilgan, qabul qilingan bo'ladi. Leksik qo'llash esa individual, ya'ni umumiy emas balki ma'lum kishilar, ma'lum doira uchun xos bo'ladi.

b) Leksik ma'no lug'atda beriladi. Leksik qo'llash lug'atda berilmaydi.

c) Leksik ma'no ma'lum bir tilda aholi tomonidan qo'llaniladi, leksik qo'llash esa shu tilda gapiruvchi ayrim kishi tomonidan ma'lum bir so'zning biror ma'nosi ifodalanadi. Ushbu so'z butun xalq tomonidan qo'llanila boshlanganidan keyingina leksik ma'noga aylanishi mumkin.

d) Leksik ma'no kontekstda oydinlashadi, leksik qo'llash esa kontekstning o'zida voqei bo'ladi; uni individual, konkret bir avtor tuzgan kontekst yuzaga keltiradi, leksik qo'llash shu kontekst negizida tug'ilib, shu kontekst doirasidagina mavjud bo'ladi. Leksik qo'llash esa shu so'zning o'zini deb emas, balki kontekstni deb qaraladi, shuning uchun barqaror bo'lmaydi; konteks bo'lmasa leksik qo'llash ham mavjud bo'lmaydi.

e) Leksik ma'no odatda bor voqeilikni nom lash uchun xizmat qiladi.

Leksik qo'llash biror voqelikni nomi bo'lmay, balki ungacha nomlangan voqeilikning o'zgacha ifodasidir. .

Leksik qo'llash hamma vaqt ham muvaffaqiyatli, o'rinli chiqavermaydi. So'zning semantik strukturasi, shu so'z bilan tildagi boshqa so'zlar orasidagi ma'no – munosabatlarga zid kelmaydigan leksik qo'llanishgina ijobiy bo'ladi.

Shunday talabga javob bergan leksik qo'llash shu so'zning leksik ma'nosidagi mavjud imkoniyatni davom ettiradi, bora – bora leksik qo'llashni leksik ma'noga aylantiradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni davom ettirgan holda so'zning semantik strukturasi o'rganar ekanmiz, shu o'rinda so'zning semantik strukturasi o'zini oydinlashtirsak. So'zning semantik strukturasi bu bir- biriga aloqador bo'lgan turli

xil ma'nolarga ega bo'lgan leksik variantlarning strukturaviy tizimidir. So'zning semantik strukturasi so'zning barcha leksik va leksik –Grammatik varianlari

tashkil qiladi. Bunga misol tariqasida “Youth” so'zining quyidagi uchta leksik – Grammatik ma'nolarini keltirishimiz mumkin:

Birinchi bu sanalmaydigan mavhum ot (the friends of one's youth); ikkinchi sanaladigan ot (a young man(ko'plikda youths)) bilan ifodalanadi; uchinchi jamlovchi ot (a young man and woman). Birinchi misolda leksik – grammatik ma'noning ikkita variantini kuzatamiz.: birinchi yoshlik holatini anglatsa, ikkinchi esa inson hayotidagi ma'lum bir davrni, ya'ni yoshlik paytini bildiradi. Lekin har ikkala ma'no ham ayni bir gapda kelishi mumkin. Masalan: *he feels that his youth has gone* (u o'zining yoshligi o'tib ketganligini his qildi). Ushbu gapda ham yoshlikning holati, ham o'zining davri o'z aksini topgan. Yuqorida keltirilgan variantlar strukturaviy tizimni shakllantirishi mumkin. Chunki ular aynan bir xil talaffuzga ega, ular ma'no jihatidan bir – biriga aloqador va ular “ young” (yosh) semantik komponentini o'z ichiga oladi va ular bir –birini taqozo etadi.

Shunday so'z borki ular faqat ma'lum holatlardagina qo'llaniladi va ular ko'chma ma'noda ishlatilib, kerakli ma'noni berishga xizmat qiladi. Bular apilikatsiya (aplication yoki Nonce usage) deb ataladi. Biz bunga quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. *Tom possessed a formidable capacity for psychological bursting. In an earsing agreeable way he burstled other people into doing things they didn't want to do.* Ushbu keltirilgan misolda “burstle” (pala – partishlik, shoshma shosharlik, sarosima) so'zi hechqanday lug'aviy ma'noga ega emas. Ushbu holat eng oddiy aplikatsiya (application or nonse usage) dir.

Shunday ekan, biz yuqorida keltirilgan fikrlarni ta'kidlagan holda, so'zning semantik strukturasi ta'rifida berilganidek bir –biriga aloqador (bog'liq) bo'lgan turli xil ma'nolarga ega bo'lgan leksik variantlarning strukturaviy tizimidir degan fikrga kelishimiz mumkin. Ushbu variantlar ayni bir tizimga kiradi, chunki ular turli holatlarda bo'lsa – da, ayni bir morfema birikmasi orqali ifodalangan. Ushbu so'zlar elementlari ba'zi umumiy semantik komponentlar orqali bir – biriga

aloqador. Boshqacha qilib aytganda, soʻzning semantik strukturasi bu turli xil kontekstlarda maʼlum tovushlar birikmasini ifodalaydigan takrorlanuvchi maʼno yoki maʼnoning bir boʻlagidan tashkil topgan bir butunlik va bunga xis – tuygʻular(emotsiya), stilistik boʻyoqlar va boshqa koʻchma maʼnolar ham kiradi. Soʻzning semantik strukturasi faqat tilda mavjud, u nutqda mavjud emas. Biz bir maʼnoli turli variantlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu variantlar leksikograflar tomonidan eʼtirof etiladi va tasnif qilinadi, biz ularni lugʻatlarda uchratamiz. Masalan, “to bother” feʼlining ikkita maʼnosini keltirishimiz mumkin;

1) “tashvishlanmoq yoki bezovtalanishga sabab boʻlmoq” (to worry or to cause trouble) va 2) “tashvish (azob) chekmoq” (to take the trouble)

Soʻzning nutqdagi leksik maʼnosi bilan uning tildagi semantik strukturasi orasidagi farqni aniqlash juda muhimdir. Nutqda maʼno kontekstualdir, yaʼni berilgan kontekstga muvofiq tarzda soʻzning oʻsha kontekstga mos varianti qabul qilinadi. Masalan, “bother” soʻzi quyidagi “any woman will love any man who bothers her enough” gapida biz aniq kontekstga birgina maʼnoni “tashvish (bezovtalanish)ga sabab boʻlmoq” (to cause trouble)ni tushunamiz. Ushbu tushuncha bosh roldagi aktyorning sevgisini siniq (istehzoli) va pessimistik qarashini ochib, beruvchi emotsional boʻyoqli kesatishi (ironiya)ni ifodalaydi. “bother” soʻzidagi ushbu boʻyoq stilistik ohang bilan birlashadi. Odatda uning bitta maʼnosi mavjud, lekin u turli kontekstlarda turli xil stilistik usullar bilan ifodalanib turli maʼnolarni anglatadi.

2.2 Mavhum otlarning maʼno anglatishi va yasalishiga koʻra tasnifi.

Turli narsalarni tasnif qilish fanda ahamiyatga ega. Tasnif narsalarni tartibga soladi, bilimimizni yanada boyitadi, tushunchalarimizni oydinlashtiradi va tartibsizlikni oldini oladi. Narsalarni tasnif qilishda biror belgiga yoki bir qancha belgilarga tayaniladi. Tilshunoslikda tasnifning gʻoyat katta ahamiyatga ega ekanligi haqida V.B.Kasevich haqli ravishda bunday yozadi: «Проблема выделения подклассов слов очень важна, поскольку, чем более дробные

подклассымыв состоянии выделить, тем богачерамматическая информация о каждом слове»¹⁰.

Tasnif grammatik jihatdan ahamiyatli va ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin.

Masalan, otlarni jonli va jonsizga bo‘lish ingliz grammatikasi uchun juda ahamiyatlidir, chunki jonli predmetlarni ifodalaydigan otlar kelishik kategoriyasiga ega, jonsiz predmetlarni ifodalamaydigan otlar esa bunday kategoriyaga ega emas.

Qiyoslang: Sid’s leg –A leg of the table. (Sidning oyog‘i. — stolning oyog‘i). O‘zbek tilida ikkala turdagi otlar kelishik kategoriyasiga ega, shuning uchun bu tasnif o‘zbek tilida grammatik jihatdan ahamiyatsiz hisoblanadi.

Til birliklarini guruhlashtirishda bir yo‘la leksika va grammatikani hisobgagrammatik tasnif — so‘z turkumlaridir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, so‘z turkumlarining leksik tomoni ularning negizida ifodalangan mavhum kategorial ma’nolar hisoblanadi (haraqat, predmet, belgi va hokazolar). Grammatik tomoni esa, ularning morfologik kategoriyalari ifodalagan grammatik ma’nolardir (zamon, modallik, nisbat, shaxs, son va hokazolar). Grammatik tasnif asosida grammatik belgi yotadi. Bu haqida ishning tegishli qismlarida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Mavhum ot mavzusiga bag‘ishlangan asar va grammatikalarni (grammatik nazariyalarni) tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, ingliz grammatistlari o‘z asarlarida mavhum otlarning juda ko‘p turlarini keltirishadi..

Hatto ingliz va o‘zbek grammatik adabiyotlarida ot turlarining tasnifi haqidagi fikrlar bir-biridan keskin farq qiladi. Fikrlar o‘rtasidagi bunday keskin farqning sababi umumiy tilshunoslikda ham, xususiyl tilshunoslikda otlarning tasnif qilish tamoyillarini ilmiy ravishda ishlab chiqilmaganligi va tasniflash jarayonida grammatikaning leksika bilan bog‘liqligini yetarli hisobga olinmaganligida deb bilamiz.

¹⁰ Касевич В.Б. Элементы общей лингвистики. - М.: Наука, 1977. -С.75.

Biz tahlilga tortgan o‘zbek tiliga doir grammatik qo‘llanmalarning deyarli barchasi faqat o‘zbek talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, chet tilini o‘rganuvchilar uchun ishlab chiqilmagan. Lekin shunga qaramay, har ikki tilga doir tadqiqotlarda talaygina grammatik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan tasniflar mavjud.

Mavhum otlarning ma’no anglatishiga ko‘ra kategorial tasnifi.

Common abstract nouns showing emotions or feelings (emotsiya va his tuyg‘uni ifodalovchi otlar):

Adoration, amazement, apprehension, clarity, anger, anxiety, delight, disbelief, excitement, fascination, despair, disappointment, friendship, grief, hate, happiness, helpfulness, misery, love, joy, pleasure, helplessness, infatuation, pain, power, relaxation, pride, satisfaction, romance, sorrow, silliness, relief, sadness, tiredness, weariness, worry, strength, surprise, peace, sympathy, wariness, uncertainty.

Quyida biz misollar orqali mavhum otlarni tahlil qilamiz:

“ *Creativity* requires the courage to let go of *certainties*” (Erich Fromm)

“*Slilence* can be a source of great *strength*. (Cathrine Breslin)

“When *love* is gone , there is always *justice*. And when *justice* is gone, there is always *force*. And when *force* is gone, there s always Mom. Hi, Mom!¹¹ (Laurie Anderson, “ O Supermen”)

“ *Fear* is the main source of *superstation*, and one of the main sources of *cruelty*. To conquer *fear* is beginning of *wisdom* ¹²(Bertrand Russell “ An outline of Intellectual Rubbish ”)

¹¹ Laurie Anderson, “ O Supermen”USA, 1998 p-4

¹² Bertrand Russell “ An outline of Intellectual Rubbish ” England1993 p-67

Common abstract nouns showing human qualities and characteristics (Insoniyat harakterini ifodalovchi mavhum otlar): beauty , evil , ego , envy, elegance, bravery, calm, coldness, courage , charity, curiosity, dedication , brilliance, brutality, compassion, determination, contentment, confidence, fear, honesty, generosity, honor, goodness, hatred, humor , humility, hope, insanity, loyalty, jealousy, kindness, maturity, integrity, intelligence, patience, perseverance, tolerance, sensitivity, sympathy, sanity, self-control, success, deceit, skill, beauty, pain, brilliance, misery, weakness, warmth, wisdom, trust , wit

Common nouns showing movements or events (voqea hodisani ifodalovchi mavhum otlar): progress, trouble, education, friendship, leisure, hospitality, relaxation.

Other examples of common abstract nouns(boshqa turdagi mavhum otlar): communication, ability, awe, chaos, adventure, belief, comfort, consideration, death, crime, defeat, culture, customer, service, democracy, dreams, disturbance, energy, failure, faithfulness, faith, idea, hearsy, grace, freedom , gossip, hurt, homelessness, idea, impression, imagination, motivation, life, movement, knowledge, memory, need, patriotism, luxury, opinion, shock, omen, opportunity, peace, principle, poverty, reality, slavery, riches, service, rumor, skill, sleep, speed, thought, submission, success, thrill, truth, unreality, wealth, victory.

It is not true that a judge always give right justice

India got freedom from British rule in 1947.

Love is an uncontrollable desire.

My determination is to get higher education.

Mavhum otlar haqida bir qator tilshunos olimlar quyidagi fikrlarni berib o'tganlar:

“ Although an abstract noun is intangible, it may be countable: lucks, noises uncountable , music, happiness”¹³

“Many abstract nouns are generally not inflected for number (luck, nauseas) or they do not occur in the possessive (the commitment’s time)¹⁴

“ Although abstract noun yobe uncountable (courage, happiness, news) many are countable (an hour , a jokr, aquantity). Others can be both , often with shifts of meaning from general to particular (great kindness, many kindness)¹⁵ Quyidagi misollar orqali mavhum otlar turlarini ko’rib chiqamiz:

“What a charming amusement for young people is this “ -Mr Darcy.(JAPP.p-28)

Mr Darcy, yoshlar uchun bu qanday xushchaqchaqlik!

I am all astonishment.(JAPP,p-28)

Men hayrat og’ushidaman.....

A lady’s imagination is very rapid ; it jumps from admiration to love , from love to matrimony in a moment.(JAPP.p-30)

Ayolning tasassuri shunchalik tezki u bir vaqtda hayratdan sevgiga, sevgidan nikoh to’yigacha yetib borishi mumkin.

Their visit to Mrs Philips were now productive of the most interisting intellegence.(JAPPp-31)

Ularning Mrs Filipnikiga tashrifi natijali ahamiyat kasb etdi

Yuqorida biz bir qator misollar va olimlarning mavhum otlar to’g’risidagi fikrlarga guvoh bo’ldik. Mavhum otlar yasalishiga ko’ra ham bir qancha guruhlarga bo’linadi:

Ot so’z turkumidan kelib chiqqan mavhum otlar :

¹³ Bryan A. Garner, Garner’s modern English usage, 4th ed.Oxford University Press, 2006

¹⁴ M. Lynee Murphy and Anu KOSKELA, Key Terms in Semantics, Continuum, 2010

¹⁵ Tom mCarthur, “ Abstract and concrete” The Oxford Companion to the English Language. Oxford University Press, 1992

Brother- brotherhood- aka –akachilik

Mother- motherhood-ona-onalik

Member-membership- a'zo- a'zolik

Man- manhood- odam- odamiylik

Friend- friendship-do'st- do'stlik

King- kingship- qirol- qirollik

Neighbor- neighborhood- qo'shni –qo'shnichilik

Leader-leadership-yetakch- yetakchilik

Sifat so'z turkumidan kelib chiqan mavhum otlar

Able- ability- qobiliyat- qobiliyatli

Kind- kindness-mehribon- mehr

Wide- width- keng –kenglik

Angry- anger- jahldor- jahl

Long- lenth-uzun –uzunlik

Great- greatness- buyuk- buyuklik

Brave- bravery- buyuk – buyuklik

3. Fe'l so'z turkumidan yasalgan mavhum otlar:

Act- action-harakat qilmoq- harakat

Die- death- o'lmoq- o'lim

Appear- apperiance-paydo bo'lmoq-ko'rinish

Think-thought-o'ylamoq-o'y,hayol

Free- freedom-erkin –erkinlik

Sell-sale-sotmoq-savdo

Shuningdek quyidagi suffikslar orqali mavhum otlarning bir qancha turlari yasaladi:

-tion – communicate- communication

-ism- patriote- patriotism

-ity – able- ability

-ment – govern- government

-ness – kind- kindness

-ance- appear- apperiance

-ship- king- kingship

-acy- democrate- democracy

2.3 Mavhum otlarni semantik tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari

Hozirgi zamon tilshunosligida gaplarni sintaktik qatlamda tahlil qilish borasida gap bo'laklariga, ya'ni bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib o'rganish bilan chegaralanadi. Zeroki, gaplarning sintaktik birliklarini, semantik maydonini, ularning differensial sintaktik hamda differensial sintaktik-semantik belgilarni aniqlash va bunda ma'lum lisoniy metodlarga tayanib gaplarni tahlil qilish zamon talabidir.

Prof. A. M.Muxin va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan «komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish» metodi juda samaralidir. Komponentlab tahlil qilish deganda gapda ishtirok etgan sintaktik birliklarni o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlab, yunksion modellar yordamida tasvirlash, ularning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash tushuniladi. Gapdagi elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilari elementlar orasidagi paradigmatic munosabat orqali aniqlanadi.

Komponentlab tahlil qilish gap qurilmasini o'rganishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Gapdagi elementlar o'rtasidagi aloqalar esa yunksion modelda o'z aksini topadi. A.S.Barxudarov va A.Yelmslevlarning aytishicha ikki element o'rtasida quyidagicha uch xil sintaktik aloqa bo'ladi: 1) gapdagi har ikki element bir-biriga tobe bo'lmagan holda (koordinativ); 2) birinchi element ikkinchisiga tobe bo'ladi, lekin ikkinchisi birinchisiga tobe bo'lmaydi (subordinativ); 3) birinchi element ikkinchisiga va ikkinchisi o'z o'rnida birinchisiga tobe bo'ladi (predikativ). Ma'lumki, an'anaviy grammatikada sintaktik aloqalar deganda bitishuv, moslashuv va boshqaruvlar tushuniladi¹⁶. Bunday tahlil metodiga misollar yordamida modellarni shakllantirib, birikmalar o'rtasidagi sintaktik bog'lanishlarni ko'rsatish mumkin.

Ammo bu sintaktik aloqalar gaplarning sintaktik tahlilida ko'zga tashlanmaydi, chunki moslashuv morfologik qatlamda qaralsa, bitishuv va boshqaruvlar leksik qatlamda kuzatiladi. Demak, sintaktik aloqalarni aniqlashda til sathlari bir-biri bilan aralashtirib yuborilgan. Shuning uchun ham mazkur ishda sintaktik aloqalar yunksion modellar orqali beriladi, hamda gapda ishtirok etgan sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari komponent modellar yordamida bayon etiladi. Mazkur operatsiyalar, asosan, gapdagi yadro komponentlarni aniqlashda eksperiment metoddan, ya'ni tushirib qoldirish transformatsiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Natijada, gapdagi yadro va tobe komponentlar aniqlanib, komponent modellarda sintaktik elementlarning morfologik xususiyatlari ham ko'rgazmali ravishda qayd etiladi. Demak, gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish sintagmatik yo'nalishda gap birliklarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish usuli yordamida amalga oshiriladi¹⁷. Ushbu tahlilning navbatdagi bosqichida esa, bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklari vazifasidagi sintaktik birliklarning differensial sintaktik-semantik belgilari

¹⁶ Ийш В.А. The structure of Modern English. - Л: Просвещение, 1971. - С.181-183. Becker Th. Back-formation, Cross-formation and "Bracketing paradoxes" in Paradigmatic Morphology//Yearbook of Morphology. - London: Arnold, 2003.-P. 1-25.

¹⁷ Мухин А.М. Структура предложений и их моделей. - Л.: Наука, 1968. - 230 с.

aniqlanib, ularning variantlari hamda ma'lum sintaktik aloqa asosida o'zaro bog'lanishi ko'rsatib beriladi. Gap tahliliga bunday yondashuvning ijobiy natija berishi ba'zi ishlarda ham o'z isbotini topgan¹⁸. Tahlilning bunday shakli paradigmatic rejada amalga oshiriladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda asosan, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik (predmet yoki shaxsni ifodalovchi element), protsesuallik (harakat nomi yoki holatni ifodalovchi element) hamda kvalifikativlik (sifat, hajm, son, holat kabilarni ifodalovchi elementlar) kabilarga e'tibor qaratiladi¹⁹.

Ushbu kategorial sintaktik-semantik belgilar tahlili asosida nokategorial belgilarni aniqlash imkoniyati ham paydo bo'ladi. Gap tahliliga bunday yondashuv sintaktik qatlamda elementar birliklarning quyidagi xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini beradi: birinchidan, gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy xususiyatlarini o'rganish; ikkinchidan, gap bo'laklarini differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilar asosida tasniflash; uchinchidan, gapdagi elementlarni sintaksemalarga ajratishning sintaktik qatlamdagi sintaktik-semantik belgilariga xos sistemali munosabatlarini, shuningdek, har bir sintaksemaning paradigmatic variantlarini aniqlash; to'rtinchidan, modellashtirish va eksperiment-lisoniy tahlil metodlaridan foydalanish. Bu borada shuni qayd qilish joizki, lisoniy birliklarning sistemali tahlili haqida ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay tilshunoslar aniq bir to'xtamga kelganlaricha yo'q. Chunki tilshunoslar tomonidan sistemali tahlil tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Xususan, E.A.Trofimovanning ta'kidlashicha: «Til tizimi stilistik jihatdan differensiallikka ega bo'lib, stilistik belgilangan konstituyentlar lisoniy birliklarining sistem tasviridir»²⁰

¹⁸ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). —Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — Б. 61-63.

¹⁹ Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. - Л.: Наука, 1976. - С.105-106.

²⁰ Трофимова Э. А. Приёмы выражения взаимосвязей реплик диалогической речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Москва, 1964. – С.6.

Bilamizki gapda mavhum otlar o'ziga xos semantikani ifodalab keladi . Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

1. She told the story however with great *spirit* among her friends. (JAPP-14)

Ushbu gapda ishtirok etgan mavhum ot *spirit* o'zi bog'langan *great* so'ziga tobe bog'lanish orqali birikkan. Bu A.M. Muxin nazariyasiga binoan bunday aloqa subordinativ bog'lanish hisoblanadi. Bu bog'lanish tobe bo'laklarda uchraydi. *With great spirit* birikmasi substansial stativ semantikani ifodalagan, ya'ni holatni ifodlovchi sintaksemdir. Ot turkumidagi so'zlar va otlik xususiyatiga ega bo'lgan til birliklari sustansial semantikani aks ettiradi. Sustansial atamasi kishi, narsa-buyum, joy nomlari kabilarni ko'rsatuvchi so'zlarni ifodalaydi.

I am all *astonishment*. (JAPP 24)

Ushbu misolda berilgan *astonishment* so'zi to be fe'lining « am » 1-shaxs birlik formasi bilan birikib, yadroviy predikativ bog'lanishda kelgan, ya'ni kesimning bir qismidir. Yadroviy predikativ bog'lanishga va kesim o'rtasida sodir bo'ladi. *am astonishment* birikmasi prosessual stativ sintaksemani hosil qilgan, prosessual semantika asosan kesim va ish-harakatni ifodalovchi so'zlarga tegishli bo'lib, stativ ya'ni ma'lum bir holatdagi kesim semantikasini ham aks ettirgan.

There were stronger impulses even than pride. (JAPP-23)

Yuqoridagi misolda *impulses* va *pride* so'zlari bir-biri bilan koordinativ aloqaga kirishgan, ya'ni gapdagi uyushiq bo'laklar koordinativ munosabatda bo'ladi va ushbu gapda koordinativ aloqa yadroviy predikativ munosabat ichida vujudga kelgan, zero uyushgan bo'laklar ega bilan birga kesim, gapning bosh bo'laklarini taqozo etgan. Semantikaga kelsak, prosessual ekzistensial sintaksemani ko'rsatadi.

He grunted with satisfaction (MED 200)

Yuqoridagi gap yadroviy predikativ bog'lanish bo'lib bu ega va kesim o'rtasidagi bog'lanish hisoblanadi .

Tony was complaining about his life again. (MED 216)

Bu gapda ham mavhum otning yadroviiy predikativ bog'lanish orqali gapda aloqaga kirishishini ko'rib chiqdik. Endi esa subordinativ bog'lanishdagi gaplarni ko'rib chiqamiz:

Agar gapda biror bir elementni tushurib qoldirganda gap strukturasi ta'sir qilmasa u holda u element gapning tobe bo'lagi bo'ladi. Demak bu element gapning tobe bo'lagi bo'lib, u gapning boshqa bo'lagiga subordinativ sintaktik bog'lanadi.

There is no point in signing and crying .(JAPP 34)


Ushbu gapda mavhum otlar o'zaro uyushib, ya'ni gapda koordinativ (teng) bog'lanish orqali kesimga subordinativ kompanent bo'lib bog'laniyapti

Ammo bu sintaktik aloqalar gaplarning sintaktik tahlilida ko'zga tashlanmaydi, chunki moslashuv morfologik qatlamda qaralsa, bitishuv va boshqaruvlar leksik qatlamda kuzatiladi. Demak, sintaktik aloqalarni aniqlashda til sathlari bir-biri bilan aralashtirib yuborilgan. Shuning uchun ham mazkur ishda sintaktik aloqalar yunksion modellar orqali beriladi, hamda gapda ishtirok etgan sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari komponent modellar yordamida bayon etiladi. Mazkur operatsiyalar, asosan, gapdagi yadro komponentlarni aniqlashda eksperiment metodidan, ya'ni tushirib qoldirish transformatsiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Natijada, gapdagi yadro va tobe komponentlar aniqlanib, komponent modellarda sintaktik elementlarning morfologik xususiyatlari ham ko'rgazmali ravishda qayd etiladi. Demak, gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish sintagmatik yo'nalishda gap birliklarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish usuli yordamida amalga oshiriladi²¹. Ushbu tahlilning navbatdagi bosqichida esa, bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklari vazifasidagi sintaktik birliklarning differensial sintaktik-semantik belgilari aniqlanib, ularning variantlari hamda ma'lum sintaktik aloqa asosida o'zaro bog'lanishi ko'rsatib beriladi. Gap tahliliga bunday yondashuvning ijobiy natija

²¹ Мухин А.М. Структура предложений и их моделей. - Л.: Наука, 1968. - 230

berishi ba'zi ishlarda ham o'z isbotini topgan²². Tahlilning bunday shakli paradigmatic rejada amalga oshiriladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda asosan, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik (predmet yoki shaxsni ifodalovchi element), protsesuallik (harakat nomi yoki holatni ifodalovchi element) hamda kvalifikativlik (sifat, hajm, son, holat kabilarni ifodalovchi elementlar) kabilarga e'tibor qaratiladi²³.

6) I¹ have² no³ opinion⁴ of⁽⁵⁾ her⁵ (JAPP.p9)



sintaktik-semantik belgilar tahlili asosida nokategorial belgilarni aniqlash imkoniyati ham paydo bo'ladi. Gap tahliliga bunday yondashuv sintaktik qatlamda elementar birliklarning quyidagi xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini beradi: birinchidan, gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy xususiyatlarini o'rganish; ikkinchidan, gap bo'laklarini differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilar asosida tasniflash; uchinchidan, gapdagi elementlarni sintaksemalarga ajratishning sintaktik qatlamdagi sintaktik-semantik belgilariga xos sistemali munosabatlarini, shuningdek, har bir sintaksemaning paradigmatic variantlarini aniqlash; to'rtinchidan, modellashtirish va eksperiment-lisoniy tahlil metodlaridan foydalanish. Bu borada shuni qayd qilish joizki, lisoniy birliklarning sistemali tahlili haqida ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay tilshunoslar aniq bir to'xtamga kelganlaricha yo'q. Chunki tilshunoslar tomonidan sistemali tahlil tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Xususan, E.A.Trofimovanning

²² Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). —Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — Б. 61-63.

²³ Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. - Л.:

Наука, 1976. - С.105-106.

ta'kidlashicha: «Til tizimi stilistik jihatdan differentsiallikka ega bo'lib, stilistik belgilangan konstituyentlar lisoniy birliklarining sistem tasviridir»²⁴ . A.S. Mel'nichukning fikricha, sistemali tahlil tushunchasi elementlarning sistem jihatdan o'zaro bog'liqligi va farqlanganligida namoyon bo'ladi²⁵.

Mavhum otlarning semantikasi tushuncha asosi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ancha murakkabroq, ancha noaniqroqdir, Ma'lum shaxs, predmetga tegishli bo'lgan belgi, xususiyat tushunchasini ifodalay ekan. So'z belgilarining virtual va aktuallik dixotomiyasi nafaqat so'zning strukturaviy xususiyatlarini ochib beradi, balki so'zning umumiy va konkret, tub (berilgan) va yangi, doimiy(o'zgarmas) va o'zgaruvchan singari gnoseologik kategoriya qutblari orasidagi tendentsiya va chegaralarni ajratib ko'rsatadi. Shuningdek mavhum otlar ifodalaydigan ma'nolarni kontekst orqali ham anglashimiz mumkin Ba'zi bir mavhum otlar borki ot so'z turkumi bo'lishi bilan birgalikda fe'l so'z turkumi doirasida ham ishlatilishi mumkinligini ko'rib chiqdik Qo'shimcha sifatida quyidagi misollar ham buni isbotlaydi:

I love my husband

Send them my love – demak bu gaplarda birinchisida love ya'ni sevmok , ikkinchi gapda esa sevgi, sog'inch ma'nolarini ifodalab kelmoqda .

Ot obyektiv borliqdagi predmetlarni, fe'l predmetlar harakatini, ulardagi jarayon va holatni, sifat narsalarning belgilarini umumlashtirgan mavhum ma'nolarda ifodalaydi. So'z tukumlari leksik- grammatik kategoriyalardir, chunki ularning negizida mavhum umumlashgan *leksik ma'no* negizidan tashqarida esa *grammatik ma'no* (zamon, modal, nisbat, shaxs, son va boshqa ma'nolar) ifodalanadi. Har bir ot o'zining xususiy ma'nosiga ega, ammo inson ularning barchasini umumlashgan predmet ma'nosida tushunadi. Bu insonning abstraksiyalash faoliyatining birgina ko'rinishidir.

²⁴ Трофимова Э. А. Приёмы выражения взаимосвязей реплик диалогической речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Москва, 1964. – С.6.

²⁵ Мельничук А. С. Понятие системы языка и структуры языка в свете диалектического материализма// Вопросы языкознания. М., 1970. - № 1. - С. 21.

II bobga xulosa

Mavhum otlarning semantikasi tushuncha asosi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ancha murakkabroq, ancha noaniqroqdir, Ma'lum shaxs, predmetga tegishli bo'lgan belgi, xususiyat tushunchasini ifodalaydigan ekan. So'z belgilarining virtual va aktuallik dixotomiyasi nafaqat so'zning strukturaviy xususiyatlarini ochib beradi, balki so'zning umumiy va konkret, tub (berilgan) va yangi, doimiy(o'zgarimas) va o'zgaruvchan singari gnoseologik kategoriya qutblari orasidagi tendentsiya va chegaralarni ajratib ko'rsatadi. Shuningdek mavhum otlar ifodalaydigan ma'nolarni kontekst orqali ham anglashimiz mumkin Ba'zi bir mavhum otlar borki ot so'z turkumi bo'lishi bilan birgalikda fe'l so'z turkumi doirasida ham ishlatilishi mumkinligini ko'rib chiqdik Qo'shimcha sifatida quyidagi misollar ham buni isbotlaydi:

Ot obyektiv borliqdagi predmetlarni, fe'l predmetlar harakatini, ulardagi jarayon va holatni, sifat narsalarning belgilarini umumlashtirgan mavhum ma'nolarda ifodalaydi. So'z tukumli leksik- grammatik kategoriyalardir, chunki ularning negizida mavhum umumlashgan *leksik ma'no* negizidan tashqarida esa *grammatik ma'no* (zamon, modal, nisbat, shaxs, son va boshqa ma'nolar) ifodalanadi. Har bir ot o'zining xususiy ma'nosiga ega, ammo inson ularning barchasini umumlashgan predmet ma'nosida tushunadi

Bu insonning abstraksiyalash faoliyatining birgina ko'rinishidir.

Ingliz tilida mavhum ot turlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga erishildi:

1. Leksik va grammatik ma'noning ishtirokiga ko'ra otlarning tasnifi asosan uch xil bo'ladi: leksik, leksik-grammatik va grammatik tasniflar.

2. Leksik va semantik tasnif asosan leksikologiyada qo'llaniladi, ularga semantik maydonlar, tushuncha maydonlari, leksik-semantik guruhlar, tematik guruhlar va leksik maydonlar kabi guruhlashtirishlar kiradi. Til ma'noli birliklarini guruhlashtirishda bir yo'la leksika va grammatikani hisobga olish leksik-grammatik tasnif sanaladi. Tildagi eng katta va keng qamrovli leksikgrammatik

tasnif — soʻz turkumlaridir. Grammatik tasnif asosida faqat grammatik belgi yotadi. Mavhum otlar maʼnosiga koʻra hissiyotni, gʻazabni, voqea- hodisani va xarakterni ifodalovchi turlarga boʻlinadi Mavhum otlarning yasalishi esa suffikslar, prefikslar orqali amalga oshadi.

III BOB MAVHUM OTLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

3.1 Pragmatika haqida umumiy qarashlar.

Pragmatika tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi yunoncha «pragma» soʻzidan tarjima qilinganda ish, harakat maʼnolarini bildiradi. «Pragmatika» termini 30 yillarning oxirida Ch. U. Morris tomonidan semiotikaning bir boʻlimi sifatida kiritilgan. Ch. Morris semiotikani uchga boʻlgan.

1. Semantika- belgilarning obyektga boʻlgan munosabatini oʻrganadi;

2. Sintaksis- belgilararo munosabat

3. Pragmatika – soʻzlovchi til belgilariga munosabatini taqqiq qiluvchi boʻlim. Dastlabki izohlarda ushbu uch soha yonma-yon joy olgan boʻlsa-da, Morris keyinchalik «pragmatika» tushunchasini qolgan ikki soha – sintaksis va semantikaga nisbatan ancha keng ekanligini qayd etadi.

Baʼzi manbalarda esa pragmatika falsafiy tushuncha sifatida fanga kirib kelganligi aytib oʻtiladi. Jumladan, «Pragmatika aslida falsafiy tushuncha boʻlib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qoʻllanishda boʻlgan va keyinchalik uni J. Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan oʻzlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30 yillarida pragmatizm gʻoyalarning keng targʻibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targʻibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak

ta'kidlaydi. Charls Morris esa semiotikani yana sintaktika semantika va pragmatikaga ajratadi. Bunda pragmatika belgilar va uni talqin qiluvchi o'rtasidagi munosabatni anglatadi. Shuningdek Laypsix nazariyotchilari buning ta'sirida tarjimaning o'zgaras va o'zgaruvchan komponentlari, asos tarjimaning bilish (obyektiv, jismoniy va aniq) aspekti, haqida so'z yuritishadi.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tatqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Pragmatikaning tilshunoslikka munosabati haqida fanda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslar, chunonchi, V. Dressler «Pragmatika tilshunoslikka aloqador emas» deb yozadi. Lekin pragmatikani tilshunoslikdan batamom uzadigan olimlar sanoqli. Ularning ko'pchiligi pragmatikaga tilshunoslikning bir oqimi, yo'nalish maktabi - serqirra til va nutq jarayonlarining alohida bir qirrasini o'rganishga va tavsif etishga ixtisoslashgan deb biladi. Pragmatikani tilshunoslikning bir sohasi deb talqin qiluvchi olimlar ham «pragmatika nima? Uning tadqiq manbai nimadan iborat? U serqirra nutq faoliyatining qaysi jihatlarini o'rganadi?» degan savollarga turlicha javob beradilar. Ayrim tilshunoslar pragmatikani lisoniy vositalarining qo'llanilishida, matndagi munosabatlarga bog'liq ravishda o'rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko'zlagan maqsadni qo'lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari deb tushunadilar. Bundan tashqari, pragmatikaning semantik informatsion talqini ham mavjud bo'lib, unda pragmatikaning tadqiq manbai aloqa - aralashuv jarayonining amaliy natijasi, maqsadi va uning amaliy samarasidadir deb baholaydilar. Qanday bo'lmasin, pragmatika yuqorida sanab o'tilgan har uch talqinga ko'ra, u nutq jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ko'riladi va tilshunoslik faniga bevosita aloqador hisoblanadi. Pragmatika tilshunoslikning bir tarmog'i, aniqroq qilib aytganda, nutq birliklarining nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo'llanishini, uning samaradorligini o'rganuvchi fan tarmog'i, oqimidir.

Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etika-estetika va boshqa fanlar nutq tizimining alohida-alohida olingan tarkibiy qismlari bo'lgan elementlarni shu tizimdan ajratib, ushbu ajratib olgan elementni o'xshashlik (bir xil mavqeda qo'llay olish) tamoyili asosida tahlil qiladi. Pragmatika shunday turli tizimlarga mansub bo'lgan insoniy faoliyatning bir ko'rinishi bo'lgan diskursda mana shu elementlarning bir butunligi, bir mikrosistema sifatida voqelanishini o'rganadi.

Semantika og'zaki nutqning ijtimoiy lingvistik va boshqa nolingvistik komponentlarini yetarli darajada tushuntira olmasligi pragmatikaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shunga ko'ra pragmatika qaysidir ma'noda sotsiolingvistika va semantika bilan ish olib boruvchi tadqiqotning yangi sohasidir.

Tekstning avtomatik tahlilida ma'lum vaziyat haqida bilimlarni shakllantiruvchi va tekst mazmunini to'g'ri talqin qilish imkonini beruvchi ensiklopedik ma'lumot, shuningdek, pragmatik ma'lumotlar senariy yoki «ramkalar» shaklida tashkillashtiriladi. Pragmatik bilim interaktiv tizimlarda ham qo'llaniladi. Pragmatika kategoriyalari hatto falsafiy mantiq tarkibiga ham kiritilgan.

Muloqot jarayonida so'zlovchilar tomonidan tilning qo'llanilishi va so'zlovchilarning pragmatik bilimlarini birlashtiruvchi sifatida pragmatika ritorika, stilistika, nutq nazariyasi va tipologiyasi, nutq faoliyati, sotsiolingvistika, psixolingvistika va shu kabi doiralarda uzoq o'rganilish tarixiga ega bo'lgan ko'plab muammolarni qamrab oldi.

Pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog'lik bo'lgan ko'plab fanlarning kesishish nuqtasida turadi.

Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy xatti-harakati bilan bog'lik bo'lgan, kulturologiya umumiy nomi bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo'ladi. Ammo ularning birortasi pragmatikaning o'rnini to'la-to'kis bosa olmaydi.

Pragmatikaning «qayta tug‘ilish davri» deb e‘tirof etilgan 1970-yildan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko‘tarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig‘inlar o‘tkazildi.

Bu darajada jadal taraqqiy etayotgan fan sohasining to‘lig‘icha shakllanishi, o‘zligini ajratib olishi uchun uning asosiy tamoyillari, tushunchalari, predmetini belgilab olish zarurati yuzaga keldi. Ammo hali hanuz, chuqur izlanishlarga qaramay bu muammo muammoligicha qolmoqda.

Pragmatikaning predmetini aniqlashga ilk bor harakat qilgan tilshunoslardan biri G.Klaus edi. U o‘z asarida pragmatikani «belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi vaqabul qiluvchi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi» fan sifatida ta’riflaydi. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar, Ch.Pirs, Ch.Morris, Yu.S.Stepanovlar, kabi belgi va uni idrok etuvchi - interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi. Hatto uning «pragmatika dastlabki o‘rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o‘rganuvchi nazariyadir» degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflaydi. Keling quyidagi buyuk yozuvchi Daniel Defoning “Robinson Crusoe” asaridan olingan parchani tahlil qilaylik

.” Robinson Crusoe according to Defoe’s novel was walking along the beach one morning and suddenly saw a human footprint in the sand made by the man who was later to be called Friday as it turned out”.

.....Robinson Crusoe ertalab qirg‘oq bo‘ylab sayr qilib yurganida qumda insonning oyoq izlarini ko‘rdi va kiyinchalik bu qadrli do‘sti Jumavoy bo‘lib chiqdi.....

J. Layonz pragmatikaning predmetini aniqlash va unga ta’rif berishga harakat qilib shunday deydi: «Pragmatika tinglovchini uzatlayotgan axbarotni xuddi so‘zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo‘llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika

lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shugʻullanadi deyish demakdir».

Ammo S. Levinson taʼrifiga yuzlanadigan boʻlsak u J. Layonz keltirgan taʼrifga nisbatan boshqacharoq taʼrifni keltiradi yaʼni uning taʼrificha pragmatika tildan foydalanuvchilar gaplarining kontekstda oʻrinli qoʻllanilayotganligini oʻrganuvchi soha deb hisoblaydi.

Menimcha esa, keltirilgan taʼriflardan J. Layonzning taʼrifi pragmatika mazmunini koʻproq ochib beradi. . Masalan quyidagi misolni koʻrib chiqaylik:

1. *Can you pass the salt?*(JMPL.p54)

Literal meaning : Are you physically able to do this task?

Literal response: ' Yes'

(*Pragmatic meaning* : Will you pass me the salt?

Pragmatic response: pass the salt to the speaker.)

2. *What time do you call this?* ²⁷(JMPL.p-54_

Literal meaning : What time is it?

Literal response : A time (e.g ' twenty to one.'

(*Pragmatic meaning* : a different question entirely, e.g. Why are you so late?

Pragmatic response: Explain the reason for being late.)

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yoʻnalishi sifatida oʻtgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970 yilda Dordrext shahrida «Tabiiy tillar pragmatikasi» (Pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya boʻlib oʻtdi. Ushbu anjumanda oʻqilgan maʼruzalar toʻplamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori M.Bar -Hillelning «Soʻz boshi»da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan «Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariya doirasida oʻrganilishi lozim», degan xulosaga kelishdi.

²⁷ JacbL.Met, Pragmatics: An Introduction 2 nd ed.Wiley, Blackwell,2000

Pragmatikaning «qayta tugʻilish davri» deb eʼtirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik koʻtarilish yuzaga keldi. Lozim boʻlsa, boʻlmasa atama qoʻllanaversa, uning negizida turgan tushunchaning siyqalanishiga olib kelinishi turgan gap. Inchinun, lisoniy birliklar pragmatik xususiyatlari, ularning pragmalingvistik tahlili haqida gapirishdan oldin «Pragmalingvistika nima bilan shugʻullanadi?», «Uning tadqiqot obyekti va predmeti nimadan iborat?», «Pragmatikaning asosiy tushunchalari, tamoyillari qaysilar?» kabi savollar yuzaga keladi.

Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan biri G.Klaus edi. U yuqorida eslatilgan asarida pragmatikani «belgilar (Z) va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar (M) oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganuvchi» fan sifatida taʼriflaydi. Ushbu taʼrifdan koʻrinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar (CH.Pirs, Ch.Morris, Y.S.Stepanov) kabi belgi va uni idrok etuvchi – interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi. Hatto uning «pragmatika dastlabki oʻrinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini oʻrganuvchi nazariyadir» degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflashdan boshqa narsa emas.

Toʻgʻri, belgining munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini inobatga olish semiotik tizim qismlarini ajratish va ularning oʻzaro aloqalarini aniqlash uchun muhim. Busiz pragmatikaning semiotik jarayondagi oʻrnini bilib boʻlmaydi. Lekin ushbu jarayon ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabat ikki tomonlama munosabat (belgi - interpretator) sifatida qaralganda, pragmatikaning taʼrifi faqat formal koʻrinish oladi. Unda beixtiyor lisoniy belgining vazifasini faqatgina maʼlumot yetkazish vositasidan iborat, degan fikr ustuvor boʻlib qoladi.

Bilamizki, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Shu sababli boʻlsa kerakki, kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha taʼriflar asosida ijtimoiy kommunikatsiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan oʻzaro «axborot – maʼno hamkorligi» sifatidagi talqini yotadi. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish

bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan «hamkor»ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlari e'tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini bilamiz. Lisoniy muloqotning xuddi shu jihatlari e'tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin bo'ladi.

Shu yo'sinda, lisoniy tizim bajaradigan vazifalarni farqlashda ham ikki asosiy savolga javob izlanadi: 1) lisoniy faoliyat jarayonida lisoniy belgidan foydalanuvchi qanday harakatlarni bajaradi? 2) lisonning qaysi xususiyatlari va imkoniyatlari undan foydalanuvchiga ushbu harakatlarni bajarish imkonini beradi. Birinchi savol lisoniy birliklarning biror bir vazifa ijrosidagi o'rni, roli bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi ijro etiladigan vazifalarning til tabiatiga xos tomonlarini aks ettiradi.

Lisonga tabiatan xos bo'lgan vazifalarini farqlash masalasini o'z zimmasiga birinchilardan bo'lib olgan olim olmon tilshunosi K. Byuller edi. U o'zining «Til nazariyasi» asarida lisonning uch vazifasi haqida gapiradi:

1) Darstellung «bayon, tasvir» predmet yoki hodisaning ifodalanishi;
2) Ausdruck «ifodalash, ekspressivlik» axborot uzatuvchining shaxsiy xususiyatlarining ifodalanishi;

3) Appell «murojaat» axborotni qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatish va uning hatti-harakatini boshqarish. Ingliz tilshunosi M.Hollidey Byuller tasnifini birtomonlamalikda ayblaydi, uning fikricha, bunday tasnifda ijtimoiy va ruhiy omillar yetakchi o'ringa chiqib, lisoniy qurilish xususiyatlarini inobatga olish va yoritish unutiladi. Olim K.Byuller ajratgan Ausdruck (ekspressivlikni ifodalash) va Appell (appelyativ yoki konativ, ya'ni suhbatdoshni harakatga majbur qilish) vazifalarini yagona bir «interpersonal», shaxslararo munosabat doirasida yuzaga keluvchi vazifaga biriktiradi. Uning yozishicha: «bu ikkalasi (ekspressivlik, konativlik) o'rtasidagi farq psixologik tahlil nuqtai nazaridan muhimdir, ammo

lingvistika uchun ahamiyatsiz. Masalan, savol biror hodisa haqida ma'lumot berish talabimi (konativ) yoki biror narsani bilish istagining ifodasimi (ekspressiv)? Ekspressiv va konativning til tizimida bir-biridan ajratib bo'lmashligidan hayratlanmaslik kerak. Ularning ikkalasi yagona bir «shaxslararo» vazifaga birikadilar

Yuqorida keltirilgan tasnif boshqalari bilan qiyoslanganda, Byullerning inson faktorini inobatga olmayotganligi ma'lum bo'ladi. Byuller muloqot jarayoni tahliliga qandaydir «betaraf kuzatuvchi» nuqtai nazaridan yondashadi, bu «kuzatuvchi» haqiqiy lisoniy faoliyat jarayonidan ajralib qolgan. Muallif kommunikativ vaziyatning ayrim jihatlarinigina qayd qilishdan nariga o'tmasdan, muloqot ishtirokchilari lisonidan foydalanishida hosil bo'ladigan holatlar masalasini ochiq qoldiradi. Uning diqqat markazida faqatgina lisoniy belgining voqelikdagi biror predmet yoki hodisa bilan bog'liqligi masalasi turadi. Ammo referensiya ham Byuller talqinida ekstrasub'yektiv hodisadir, ya'ni u lisoniy belgidan foydalanuvchi shaxsga aloqador emas.

M.Hollidey tasnifida ham lisonning uch vazifasi eslatiladi: 1) idrok, tasavvur vazifasi (the ideational function), ya'ni lison so'zlovchilarning voqelik, o'z ichki kechinmalari haqidagi fikr, g'oyalarini ifodalash uchun xizmat qiladi; 2) shaxslararo vazifa (the interpersonal function): til muloqotga kirishish va shaxslararo munosabat o'rnatish vazifasini o'taydi; 3) kontekst yoki matn vazifasi (the textual function): til o'zi va qo'llanilayotgan vaziyat elementlari o'rtasidagi aloqani shakllantirish vazifasini bajaradi. Oxirgisi til tizimining ichki vazifasi bo'lib, u oldingi ikki vazifa amalga oshishida vosita xizmatini o'taydi. Ushbu tasnifiy qatordan faqatgina birinchisi, ya'ni idrok etish, tasavvur qilish vazifasi (the ideational function) Byuller tasnifidagi Darstellung «bayon etish, tasvirlash» ga mos kelishi ko'rinib turibdi. Zero, ikkala muallif ham voqelikning kognitiv-lisoniy aks topishini (referentlikni) nazarda tutmoqda. Hollideyning muloqotning ishtirokchilari so'zlovchi va tinglovchiga oid lisoniy faoliyat ko'rinishlarini yagona bir doirada, ya'ni shaxslararo munosabat doirasida talqin va tavsif qilishi bir oz e'tirozlidir. Ma'lumki, kommunikativ jarayonda so'zlovchi va tinglovchining

ishtiroki, maqsadi va roli turlicha. Soʻzlovchi tinglovchining kechayotgan muloqot tarzi, mazmuniga boʻlgan munosabatini hisobga olishga majbur, aks holda muloqot soxtalashadi, kommunikativ befarqlik yuzaga keladi. Shunga nisbatan, Byuller tasnifidagi kommunikativ jarayonda lison bajaradigan vazifani bir paytning oʻzida soʻzlovchi va tinglovchi nuqtai nazaridan talqin qilib, ikki alohida vazifa ijrosi sifatida ajratishni muhimroqdir.

Shaxslararo munosabat faqatgina kommunikatsiyadan iborat emas Demak muloqat boʻlmasdan turib ham insonda tushuncha paydo boʻlishi mumkin . Quyidagi misolda koʻrib chiqamiz”

Masalan : *black cloud means- rain*

Smoke means- fire

Shaking of trees means- wind

Shaking of hands means- greeting va boshqalar.

Bunda biz soʻzsiz kishida tushuncha sodir boʻlishini ifodalash mumkin

Shuning uchun grammatik tizim va soʻzlashuv faoliyati munosabatlari bilan shugʻullangan D.Frank «ekspressiv mazmun» mavjudligiga (yoki mavjud emasligiga) nisbatan kommunikativ va interaktiv faoliyatlarni farqlashni taklif qiladi Ushbu farqni izohlash uchun muallif boks musobaqasi qoidalariga murojaat qiladi. Uningcha, boks oʻyini nokommunikativ munosabat misolidir, chunki har bir musht tushirishning «mazmuni» birdaniga aniq boʻlmaydi, oʻyinda bajarilayotgan harakatlarning bahosi umum tomonidan qabul qilingan qoidalarga asosan beriladi. Bunday mushtlashish oʻyindan tashqari muhitda yuz berganda esa, har bir musht maʼlum maqsad sari yoʻnaltiriladi.

Darhaqiqat, turli kommunikativ harakatlarni farqlovchi narsa tanlangan ifoda vositasi va nazaridan tasniflash ehtiyoji mavjud.

Lisoniy muloqot inson faoliyatining muhim turi. Lisoniy faoliyatda obyektiv va subyektiv holatlarning moslashuvi muammosiga oid alohida risolalar yaratgan rus lingvofaylasufi Gennadiy Vladimirovich Kolshanskiy lisonning subyektivligini uning insoniylik xususiyatidan izlash lozimligi haqida maslahat beradi: «til alohida

shaxsning, insonning, butun insoniyatning fikrlash qobiliyati alomatidir va shu sababli o'z tizimi hamda strukturasi inson tomonidan olamni o'zlashtirilishining barcha xususiyatlarini, inson amaliy faoliyatining xususiyatlarini, ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlarini ifoda etadi... Til – obyektiv va subyektivdir, u o'z mohiyati bilan ikki tomonlama substansiya bo'lib, bir paytning o'zida borliqqa va insonga «yuzlanadi» (lison- subyekt, lison-obyekt).

Kommunikativ jarayonda va umuman lisoniy faoliyatda obyektiv va subyektiv omillarning muvofiqlashuvi muloqot ishtirokchilarining bir-birini tushunishini ta'minlaydi. Bu masala subyektiv bilishda umumiylikka erishishga doir. Axir borliqning ikki shaxs tomonidan bir xilda idrok etilishi qiyin masaladir. Insonlar tug'ilib o'sgan, shaxs sifatida kamol topgan ijtimoiy-madaniy muhitlar turli xil, ular ana shu muhitdagi sharoitlarga mos holda turlicha tarbiya ko'radilar, ulg'ayadilar (hatto egizaklar ham intellektual jihatdan farq qilishi mumkin). Shunday ekan, turli insonlarning voqelik haqidagi bilimi subyektiv jihatdan ma'lum darajada farq qilishi mumkin, lekin shuning bilan birgalikda yagona muhitda yashaydigan shaxslar shu muhit uchun umumiy bo'lgan tamoyillar va qonun-qoidalarga amal qilishini ham unutmaslik lozim. Xuddi shu narsa muloqotdagi shaxslarning voqelik idrokida o'ziga xos «shaxslararo kelishuviga» olib keladi. Kommunikatsiya voqelikning subyektiv tasavvurida qisman muqobillik va qisman nomuqobillikni taqozo etadi.

Shunday qilib, kommunikatsiyaning tabiati haqida yuqorida aytilgan fikrlar uning tahlili jarayonida inobatga olinishi lozim. Kommunikatsiyaning mohiyati faqatgina obyektiv va subyektiv faktlar umumiyligida namoyon bo'ladi. Shu sababli bo'lsa kerakki, kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlari sifatida «so'zlovchi», «tinglovchi», «ijro etish» va «tushunish» bo'limlari ajratiladi. Bunday yondashuv pragmatikaning ayrim yo'nalishlarida muloqotni faqatgina lisoniy aktlarni tushunish nuqtai nazaridan tahlil qilish g'oyasining ustunligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa pragmatikaning tahlil doirasini chegaralab qo'yish xavfini tug'diradi. Pragmatikani tushunish nazariyasiga aylanib qolishi xavfidan ogoh qilgan H.Parret tushunish harakati muloqotda oqilonalikka (ratsionallikka) va

mantiqiylikka undashini qayd qiladi . Muloqot voqelikning subyektiv idrokini talab qilishi va shu idrok, tushunish atrofida mazmunan tarkib topishi haqiqatdir. Ammo bu haqiqatning bir qismigina, chunki subyektiv tasavvurni yaratish faoliyatisiz uni tushunish imkoniyati yo‘q.

Zero, har qanday ko‘rinishdagi lisoniy faoliyat tahliliga vazifaviy (funktional) nuqtai nazardan yondashuv ilmiy tadqiq strategiyasini, uning tamoyillarini aniq belgilab olishga imkon beradi. Lisoniy hodisalarning vazifaviy talqini lisoniy tahlilda, turli nazariyalar shakllanishida muhim metodologik asos, ko‘rsatma xizmatini o‘tamoqda. Pragmalingvistik nazariya ham funksionalizmni chetlab o‘ta olmaydi. Muloqot faoliyati tahliliga lisoniy tizimning funksional xususiyatlari nuqtai nazaridan yondashmasak, pragmalingvistikaning ta’rifini berish, uning tadqiq predmetini aniqlash o‘ta qiyin vazifaga aylanadi.

J.Layonz tilshunoslarning 12-xalqaro kongressida pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta’rifini berishga harakat qildi: «Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so‘zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo‘llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug‘ullanadi, deyish demakdir»²⁸ Ushbu ta’rifning asosida lisoniy harakatdagi ko‘zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o‘rtasidagi munosabat turibdi.

«Sabab-motiv-maqsad» zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta’minlaydi. Xuddi shu narsa A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini «qo‘yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta’minlovchi insonga xos bo‘lgan qobiliyat qoidalarini» yoritish va tushuntirish deb tavsiflashga undaydi..

Amerika tilshunoslarining ko‘p hollarda lisoniy faoliyatga oid har bir hodisa tahlilida N.Chomskiy ta’limotiga tayanishga harakat qilishlari sezilib turadi. Pragmalingvistik tadqiqotlar ham bundan mustasno emas. Nutqiy harakatlar ijrosi

²⁸ J.Lyonz “ Proceedings” Venice. 1978 , p -26

negizidagi propozitsiya mazmuni va kommunikativ maqsadni namoyon qilish (illokutsiya) munosabatini o'rgangan J.Kats pragmatika predmetini Chomskiy ta'limotidagi lisoniy qobiliyat (competence) va nutqiy ijro, faollik (performance) qarama-qarshiligida ko'radi. Uningcha, pragmatik nazariya gaplarning ma'nosini ma'lum muhitda (kontekstda) talaffuziga binoan chegaralash imkonini yaratadi. Grammatika gap turlari strukturasi haqidagi ta'limotdir, pragmatika esa aksincha, lisoniy tuzilmalarning qurilishi, ularning grammatik xususiyat va munosabatlarini yoritish bilan shug'ullanmaydi. Pragmatik nazariyalar gap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqligini so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta'minlanishini o'rganadilar. Shunga nisbatan, pragmatik nazariya nutqiy faollik (performatsiya) nazariyasining ma'lum bir qismidir.

Pragmalingvistik tadqiq doirasini bu darajada toraytirish uni faqatgina nutqiy ijro faoliyati bilan chegaralab qo'yish nazariyani tor ko'chaga yetaklashdan boshqa narsa bo'lmasa kerak. Bunday holatda lisoniy tahlil o'z poydevori - lisonidan ajralib qoladi. Shubhasiz, lisoniy faoliyatning yuzaga kelishida sotsial muhit, muloqot vaziyati muhim rol o'ynaydi va shakllanayotgan birlikning mazmuni matn yoki kontekstda namoyon bo'ladi, aniqlanadi. J.Kats keltirgan misollar rabbit «quyon» va bunny «quyoncha» hamda dog «it» va dogge «kuchukcha» juftliklarining ikkinchi so'zlarini («quyoncha», «kuchukcha») bolalarga nisbatan yoki ularning o'zlari tomonidan ishlatilishi to'g'ri. Ammo ular mazmunidagi erkalash, kichraytirish ma'nolari matnga ham ma'lum. Bu ma'nolar lisoniy xarakterga ega va leksik yoki morfologik ifoda vositasiga ega ekanligi ko'rinib turibdi.

Lisoniy faoliyat birliklarining mazmunan matn, qo'llanilayotgan kontekst bilan bog'liqligi muammosi shu darajaga borib yetdiki, U. Bar-Hillel, J.Layonz kabilar bir tomondan matn –gap va tizim –gap, gap – til va gap- belgi hamda, ikkinchi tomondan, nutqiy birliklar bo'lgan nutqiy akt va nutqiy hosila, nutqiy belgi va til hodisalarini farqlashni taklif qilishadi. Bu esa, o'z navbatida, gap ma'nosini semantikaning obyekt va nutqiy birlik ma'nosini pragmatika obyekt sifatida qarashga sabab bo'ladi. Semantika va pragmatika munosabati masalasi

muhokamasini hozircha keyingi sahifalarga qoldirib, aytmoqchimanki, bu turdagi talqin pragmatikaning doirasini yanada chegaralab qo'yib, uni gap yoki nutqiy birlikning u yoki bu matnda (vaziyatda) o'rinli - o'rinsiz qo'llanishini aniqlovchi sohaga yaqinlashtirib qo'yishi hech gap emas. U holda S.Levinson taklif qilgan ta'rif o'rinlidek tuyuladi: «Pragmatika tildan foydalanuvchilarning gaplarining kontekstda o'rinli (appropriate) qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir»²⁹ degan ta'limotni keltirgan edi.

Olmon olimlari pragmatika sohasini keng ma'noda talqin qilish, uni tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida e'tirof etishni ma'qul ko'rishadi. Masalan, «Olmon lingvistik qomusi»ning mualliflaridan biri, matn tilshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis Z.Shmidt «pragmatika» va «matn lingvistikasi» tushunchalari yagona bir mazmun anglatishini va ular birgalikda lisoniy muloqot umumiy nazariyasini shakllantirishini hamda ushbu nazariya, kommunikativ tilshunoslik sohasi sifatida, matn grammatikasi va an'anaviy grammatikani ham qamrab olishini isbotlash niyatida ekanligini bildiradi.

Mualliflar soni ko'paygani sari berilayotgan ta'riflardagi turli xillik, fikrlar ziddi ham o'sib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Oxirgi 60-70 yil davomida pragmatikaning doirasi, qamrovi shunchalik kengaydiki, yagona bir nazariya va uning chegarasi haqida biror bir to'xtamga kelishning o'zi qiyinlashib bormoqda. Buning ustiga, pragmatikaning taraqqiyotiga kognitologiya, madaniy antropologiya, falsafa, mantiq, sotsiologiya, faoliyat nazariyasi kabi tilshunoslikning sarhaddoshlari va sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, matn nazariyasi kabi sohalari ham hissa qo'shib kelmoqda. Pragmatikaning tadqiqotlarning predmetini nimalar tashkil qilmog'i darkorligi masalasi ham o'z dolzarbligini hanuz saqlab kelyapti.

Yuqorida pragmatikani tor ma'noda talqin qiluvchi ayrim ta'riflar keltirildi. Xuddi shu yo'sindagi pragmatik tadqiqot doirasining toraytirilishini ayrim faylasuflarning fikrlarida ham sezish mumkin. U. Montegyu, P.Stroson kabilar

²⁹ S.Levinson "Pragmatics" 1983, p-24

(qarang: Pavilines 1986) pragmatikaning tadqiqot predmeti sifatida deyktik iboralar («men», «sen», «bu yerda», «u yerda», «hozir», «o'sha paytda» kabilari) mazmunini tavsiflashdan iborat deb qarashadi. Ushbu birliklarning referentini matnsiz aniqlash mushkul ekanligi ma'lum. Ularning ma'nosini ravshanlantiruvchi eng kichik matn (minimal kontekst) so'zlovchi, tinglovchi, zamon, makon, registr, stil, nutqiy harakat turi kabilarni inobatga oladi.

Rus tilshunoslari N.D.Arutyunova, Y.S.Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining «men»ini ifodalanishi uslublarini o'rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishgan. Pragmatikani so'zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta'sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar ham yo'q emas..

. Pragmalingvistik tadqiq metodologiyasi, birinchidan, o'z falsafiy asosiga ega bo'lishi kerak bo'lsa, ikkinchidan, xuddi shu xususiyatlarni (ontologik va vazifaviy) aniqlash imkoniyatini yaratmog'i lozim. Bunday metodologiyaning tayanch nuqtasi xizmatini, so'zsiz, faoliyat tamoyili yoki umuman faoliyat falsafasi o'tashi mumkin. Faoliyat kategoriyasining lingvistik tadqiqotlarda asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilinishi kommunikativ tizimning tarkibiy qismlari, ularning tuzilishi, lisoniy va nolisoniy mohiyati haqida batafsilroq bilimga ega bo'lish imkonini yaratadi³⁰. Pragmalingvistikaning metodologik negizini faoliyat nazariyasidan izlagan psixolingvistlardan biri YE.F.Tarasovning fikricha, nutqiy muloqotning inson faoliyatiga bog'liq ekanligini ikki tomonlama tushunish kerak: «Birinchidan, faoliyat kechayotgan nutqiy muloqotning mundarijasi va vositalarini belgilab beradi. Muloqot mundarijasi kommunikantlarning hamkorlikdagi faoliyatidan iborat bo'lib, lisoniy belgilar tanlovi va diskursning (nutqiy birlikning) tuzilishi ushbu hamkorlik maqsadi talabiga javob beradi. Ikkinchidan, faoliyat ko'rsatayotgan inson tasavvuridagi

³⁰ Sh. Safarov .Pragmalingvistika.1991, 25-51 betlar

obyektlar dunyosini shakllantiradi va bu obyektlarning mavjudligi belgilar vositasidagi muloqotning eng birinchi va asosiy talabidir. Lingvopragmatika ta'rif, uning predmetining tavsifi borasidagi fikrlar qanchalik turli-tuman bo'lmasin, tadqiqotchilar bu borada quyidagi asosiy g'oyalarda hamfikrdirlar:

- kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- lison muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;

- lisoniy faoliyat voqelanishi bevosita muloqot muhiti bilan bog'liq hodisadir. Bularning barchasi pragmalingvistikaning alohida sohalari uchun tadqiqot predmeti bo'la oladi. Masalan, lisoniy muloqot tizimi nutq subyekti nuqtai nazaridan tadqiq qilinganda, e'tibor nutqiy akt turlarining mazmuni, diskurs tuzilishida muloqot maqsadining o'rni, tagma'noning ifoda topishi, pressuppozitsiya va muloqot ishtirokchilarining mental qobiliyati kabi hodisalarga qaratiladi. Tadqiqot nutq adresati nuqtai nazaridan bajarilayotganda esa, asosiy e'tibor nutqiy aktning pragmatik ta'sirini aniqlashga qaratiladi.

Yuqoridagi ikki holatda asosiy tadqiqot obyekti nutqiy akt, u orqali uzatilayotgan axborot va ushbu axborotning tushunib, ma'no jihatidan idrok etilishidir.

3.2 Mavhum otlarning badiiy asarlardagi semantikasi va pragmatikasi

Mavhum otlar gapda turli hil semantik va pragmatik ma'nolarni ifodalab keladi. Semantika bilamizki, bu so'zlarning ma'nolarini o'rganadi ya'ni gapda bir so'z qanday ma'noda kelayapti va u qanday so'zlar bilan bog'lanmoqda.

.Masalan : *She is beautiful with her apperiance- U ko'rinishi bilan chiroyli.*

Apperiance is decive- Ko'rinish aldamchidir..

Pragmatika esa so'zlarning aynoan ma'nosini emas balki umumiy bir gapning turli kishilarda turlicha ma'noga ega bo'lishini ifodalab keladi.

Masalan quyidagi gapni ko'rib chiqaylik:

“ ***Crack the window!*** - bu gapni pragmatik jihatdan ko’rib chiqsak “ xona juda kichkina , dim va siz isib ketyapsiz o’z –o’zidan bilasizki derazani ochish kerak demak miyada shu ma’noda gapni tushunamiz. Agar xuddi shu buyruq boshqa vaziyatda berilsa , masalan, siz uyida qulflanib qolgan do’stingiz oldidasiz u ichkarida siz esa tashqaridasiz siz ham ichkariga kirishingiz kerak, shunda do’stingiz shu buyruqni beradi: ‘***Crack the window!***’ demak bu yerda derazani qiyalatib ochib quying emas balki , derazani sindiring degan ma’noni tabiiy ravishda anglaymiz. Demak pragmatika har qanday holatda ham kontekst bilan bog’liq hodisa ekanligiga yana bir bor guvoh buo’lamiz. Keyingi misolda biz yanada pragmatik holatni aniqlashtirib o’tamiz:

“***Could I have a cookie?***” or “ ***Those cookies look good,***” gaplari turli ma’nolarni masalan “ ***Give me a cookie.***”, “ ***I like cookies***” kabi ma’nolarda kelayotga bo’lishi ham mumkin. Bu gapni qanday tushunish albatta kontekstga bog’liq holda amalga oshiriladi. Demak pechenye qandayligini tasvirlash orqali uni tatib ko’rish niyati borligini tushunishimiz mumkin.

I see no occasion for that. (JAPP.p-6) Bu gapni tarjimada ‘Men bunga hech qanday sabab ko’rmayapman’ tarzda tarjima qilamiz va bu gapdagi *occasion* mavhum oti *qulay vaziyat* emas balki *sabab* ma’noli semantikani ifodalab kelmoqda .

.When a woman has five grown up daughters, she out to give over thinking f her own beauty. (JAPP.p6)

Beshta bo’yi yetib qolgan ayol o’zining chiroyi haqida o’ylashi be’manilikdir . Bu gapda beauty mavhum oti go’zallik , chiroy ma’nosini ifodalab kelmoqda .

..... **but you are always giving her preference.** (JAPP. P-7)

.....*ammo siz har doim unga imtiyoz taqdim etasiz.* Bu gapda preference semantik jihatdan afzallik emas balki imtiyoz ma’nosida ishlatilmoqda.

Lizy has something more of quickness than her sisters.(JAPP.p-7)

Lizy singillariga nisbatan chaqqoroq.

Yuqoridagi gapda quickness mavhum oti kishi harakterini *ifodalab* semantik jihatdan tez, chaqqon ma'nosida tarjima qilinmoqda .

I have a high respect for your nerves. (JAPP.p-9)- *Men sizni asabingizni chiqarish niyatim yo'q.* Bu gapda respect mavhum oti tushirib qoldirilgan holda tarjima qilingan va u gap semantikasig ata'sir qilmaydi.

You may have the advantage of your friend.(JAPP.p-10)

Siz do'stingizga nisbatan ustunroqsiz. Ushbu gapni semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilsak aynan qanday vaziyatda aytilyotganligi tushuntirib berish kerak bo'ladi bu yerda advantage mavhum oti afzallik , ustunlik ma'nolarida ishlatilmoqda bu gapning ifoda mazmuni hisoblanadi semantik jihatdan tog'ri qo'llanilmoqda . Agar pragmatik jihatdan oladigan bo'lsak aynan advantage so'zi nimaga nisbatan ustunroq , balki qobiliyat yoki boylik nazarda tutilyotgandir biz buni kontekst yani vaziyat orqali bilib olishimiz mumkin.

Elizabeth Bennet had bbeen obliged by the scarcity of gentleman.(JAPP.p-12)

Elizabeth Bennet janobning qo'rquvi ostida qoldi. Bu gapda esa scarcity mavhum oti ishtirok etib tarjimada qo'rquv , tahdid kabi ma'nolarni anglatadi . Semantik jihatdan gap mazmunig a mos tarjima qilinga va his tuyg'uni ifodalaovchi mavhum ot turiga kiradi . Agar bu gapni pragmatik jihatdan tahlil qilsak , balki Elizabeth janobni ishonchi suistemol qilgandir, yoki biror jinoyatni ishi ustida qo'lga olingandir. Bu bizga nomalim bo'lgan hodisadir. Buni kim qanday tushunishi ularning onggi bilan bog'liq hodisadir.

“ I wouldn't be so fastidious as you are” (JAPP. P-10).

Men sizchalik talabchan bo'lmagan bo'lardim. Kiyingi gapda esa fastidious ya'ni talabchan mavhum oti ishlatilib bu kishi harakterini ifoda etuvchi ot turiga kiradi. Semantik jihatdan eganing holatini harakterini ifodaalb kelmoqda , Agarpragmatik jihatdan yondashsak aynan qanday vaziyatda talabchan ekanligi hamda ustoz shogirdiga yoki shogird ustoziga qo'yayotgan bahosi , balki ota – onaga qarata aytilgan murijaat erkanligini biz bilmaymiz , faqatgina bizning onggimizda tahminlar vujudga keladi.

She told the story with great spirit among her friends.(JAPP.p-11).

U hikoyani do'stlari orasida dadilik bilan so'zladi. Bu gapda sipirit so'zi mavhum ot hisoblanib gapda ega bilan birikib great spirit yani katta ruh ma'nosida kishining holatini ifodaalb kelmoqda.

On the strength of Drcy's regard Bingley had the firmest reliance.(JAPP.p-18)

Drsiyning diqqati ta'sirida Bingliy yengildi.

Pride relates more to our opinion of ourselves , vanity to what we would have other's think of us.(JAPP.p-21)

G'ururo'zimizning haqimizdagi fikr bilan bog'liq bo'lsa,manmanlik esa boshqalarning biz haqimizdagi fikriga bog'liq hodisadir.

Happiness is marriage is entirely a matter of chance.(JAPP. P-24)

Turmushdagi baxt bubutunlay imkoniyatlarning yetarli bo'lishiga bog'liqdir.

“What a charming amusement for young people is this “ -Mr Darcy.(JAPP.p-28)

Mr Darcy, yoshlar uchun bu qanday xushchaqchaqlik!

I am all astonishment.(JAPP,p-28)

Men hayrat og'ushidaman.....

A lady's imagination is very rapid ; it jumps from admiration to love , from love to matrimony in a moment.(JAPP.p-30)

Ayolning tasassuri shunchalik tezki u bir vaqtda hayratdan sevgiga, sevgidan nikoh to'yigacha yetib borishi mumkin.

Their visit to Mrs Philips were now productive of the most interisting intellegence.(JAPPp-31)

Ularning Mrs Filipnikiga tashrifi natijali ahamiyat kasb etdi

Mrs. Bennet's ayes sparkled with pleasure(JAPP.p-31)

Mrs Bennetning ko'zlari mamnuniyatdan charaqlab turgandi.....

Till the next morning she wasn't aware of all felicity....(JAPP.p-32)

Ertalab u uni qanday baxt kutayotganligidan butunlay bexabar edi.

Yuqoridagi misollarda biz mavhum otlarning turlari, semantik kategoriyalari hamda ma'nolari ifodalanganiga guvoh bo'ldik. Ilmiy tadqiqod davomida olib borilgan izlanishlar mahsuli sifatida ushbu misollar tadqiqod vazifalari va mazmuni ochib berishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

3 Bobga xulosa

Shunday qilib, pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo'nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o'rtasida mavjud bo'lib turgan «uzilish»larni bir oz toraytiradi.

Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'z «ichki» sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi.

UMUMIY XULOSA

Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki berilgan (ma'lum bir) so'z kontekstda qancha ko'p ishlatilsa, uning o'shancha leksik shakli mavjud bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, so'z o'zida hech qanday mustaqil ma'noni anglatmaydi, ya'ni uning ma'nosi faqat u qo'llaniladigan kontekstda aniqlanadi va har qanday ishlatilgan so'z bu uning ma'nosini tashkil qiladi.

Yuqorida har doim ham bir fikrni ma'nosini to'laligicha ochib berish funksiyasini bajaravermaydi. Odatda, suhbatdosh nutqini tinglayotgan kishi suhbatdoshining gapirayotgan so'zlariga, uning o'zining tushinishiga qamrab u (suhbatdosh) ning ruhiy (psixik) holatini va gapirayotgan kishi yoki narsa hodisasiga nisbatan bo'lgan munosabatini aniqlab olishi mumkin. So'zning ma'nosi murakkab strukturaviy hodisa ekanligi va u o'z ichiga quyidagilarni olishi yana bir dor o'rganib chiqdik. : a) turli xil belgilar, o'z ichida berilgan hodisaning mavjudligini ifodalaydigan ehtimolini oladi, ehtimol esa ma'lum voqea yoki hodisani tasniflaydi; b) ma'lum predmetni yoki bir qancha predmetlarni yig'indisini biror narsaga tegishliligi (daxldorligi)ni ko'rsatadi; v) ifodalaydigan narsa yoki hodisaning qadr – qimmatini bildiradi va bunda bizning individual – psixologik baholashimiz o'z ifodasini his – tuyg'u (emotsionallik) elementlarini o'z ichiga olgan holda aks etadi. Yana bir Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun nashr etilgan darslikda biz so'zning ma'nosi bilan ekspressv-emotsional (xistuyg'uni ifodalovchi) elementlarini bir-biriga bog'langan holda ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Har qanday til o'zining takrorlanmas qonun qoidalari, talaffuzi, jamiyatdagi o'rni bilam ajralib turadi . U tilni qanday o'rganish va uning barcha xususiyatlarini tahlil qilish va o'sha til ichida kirib yashash insonning qobilaytida nomoyon bo'ladi .Ilmiy ishni tayyorlash davomida mavzu yuzasidan bir qator xulosalar kelib chiqdi :

- til va uni o'rganish uning jamiyatdagi o'rnini aniqlash ,hozirgi kunda xorijiy tillarning bizning jamiyatimizdagi o'rni qay darajada ekanligini tahlil qilish;

- Ingliz tilida mavjud bo'lgan so'zlar ularning ifoda mazmunini tahlil qilish, ularning morfologik semantik va pragmatik xususiyatlarini yana bir bor tadqiqod davomida o'rganib chiqdik.
- So'zlarning leksik ma'nolari, so'zlarning morfologik belgilari, ularning grammatik shakli va gapdagi sintaktik bo'lanishlarini tadqiq qildik.
- So'zlarada shakl va ma'no munosabati qay darajada muhim, shakl mansiz ma'no esa shaklsiz amalga oshmasligini o'rganib chiqdik.
- Shuningdek so'zlarda analitik, sintetik, sintetik – analitik formalar mavjudligi va ularni kengroq tarzda tushuntirishga harakat qildik.
- Mavhum otlarning semantik kategoriyalari, ifodalanishi hamda badiiy asarlarda qanday tarjima qilinishi va ma'nolarini berib o'tdik.
- Qolversa bir qator mashhur tilshunos, lugatshunos olimlarning jumladan Ch.Morris, Ch. Kreidler, V. Arnolda, Muhin, Pirs, Y.Ogen kabi tilshunoslarning kitoblarini o'rganib chiqdik.
- Tilda mavjud bo'lgan har qanday so'z albatta nimanidir nomlab kelishi va o'sha so'z yoradamida biz fikrimizni boyon qila olishimiz va bir gap orqali bir nechta vaziyatlarni yuzaga keltirishimiz mumkin ekanligini tushuntirish.
- Agar tilshunoslikda pragmatik sohasi bo'lmasa qanday hodisa yuz berishi va har bir tilning va har bir sohaning o'ziga hos pragmatikasi mavjud ekanligini aniqlash.
- Hozirgi kunda barcha ta'lim sohasida bu fanni joriy etish muhim ustuvor masalalardan biri ekanligini tushunib yetish.
- Tadqiqod davomida insonlarning bir- biriga bo'lgan munosabati, ularning ichk dunyosini tushunishda aynan pragmatik muhim rol o'ynashi tadbiq etish.
- Shuningdek pragmatik lingvistikaning alohida sohasi ekanligi va u ma'no bilan bog'liqligi, semantika va pragmatika bitta umumiy tushunchani turli xil tushunish ekanligini bilib oldik.

- Qolaversa semantika va pragmatika insonlarning tildan qay tarzda mazmundor foydalanishini ifodashig aguvoh bo'ldik.
- Semantika bir so'z orqali turli xil ma'nolarni ifodalab bersa , pragmatik aturli vaziyatlardan bitta ma'noni ajratin olish qobiliyatini kasb etishini angladik.
- Shuningdek so'zlarning(mavhum otlarning) yasalishi , semantik kategoriyalari ishlatilish o'nini belgilash va so'zlarga xos muhum belgilarni bir qator mashhur tilshunos olimlarning g'oya fikrlaridan foydalangan holda ko'rib chiqdik.
- So'zlarning semantik va pragmatik xususiyatlari gapning ko'p ma'noli va mazmundor bo'lishi ta'minlashiga guvoh bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Qonunlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar

1. Karimov I.A. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi №1875 qarori. -T.: 2012
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni// Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997.-142 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997.-164 b.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Karimov I.A. asarlari

4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.-T.: O'zbekiston, 1994.-299 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.–T.: 2008.-110 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1999. -328 b.

Asosiy adabiyotlar:

7. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. (Синонимические средства языка) М.: Наука, 1974. - 268с.
8. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. М.: 1976. - 242с.
9. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: 1966. - 480с.
10. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Т.: 1985. - 199б.
11. Гак В.Г. Семантическая структура слова как компонент семантической структуры высказывания. Сб: Семантическая структура слова. М.: 1974.- с.62-84.
12. Головин Б.Н. Введение в языкознание. - М.: Высшая школа, 1977. - 186 С.

17. Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. М.-Л.: 1965. - 226с.
18. Колшанский Г. В. Контекстная семантика. М.: 1980. -162с.
19. Колшанский Г. В. Семантика слова в логическом аспекте. Язык и мышление, М.: 1967. - 211с.
- 20.Комлев Н.Р. Компоненты содержательной структуры слова. М.: 1969. - 306с. . .
- 21 Bryan A. Garner, Garner’s modern English usage, 4th ed.Oxford University Press, 2006
22. M. Lynne Murphy and Anu KOSKELA, Key Terms in Semantics, Continuum, 2010
- 23.Tom mCarthur, “ Abstract and concrete” The Oxford Companion to the English Language. Oxford University Press, 1992
- 24.Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Т.:2008. - 74 б.
- 25.Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги .Т.: 2005. -114б.
- 26.Мюллер В. К. Англо-русский словарь: М.: 1992. Изд. 23-е. 842 с.
27. Мухин А.М. Структура предложений и их моделей. - Л.: Наука, 1968. - 230 с.
28. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). —Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — Б. 61-63.
29. Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. - Л.: Наука, 1976. - С.105-106.
30. Неъматов Х, Бегматов Э, Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси. Ўзбек тили ва адабиёти.2009.- № 6; 21-24 б
31. Неъматов Х. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т.: 1995. - 128 б.
32. Прокопович Е.Н. Глагол в предложении. Семантика и стилистика вида - временных форм. М.: 1982. - с.84-96.
33. Русско-английский словарь: около 50000 слов. М.: 1981. -766с.

34. Семантическая структура слова. Психолингвистические исследования. М.: 1971.
35. Словарь синонимов: справочное пособие. Л.: Наука, 1976. - 648с.
36. Ўзбек тилининг изохли луғати. А.Мадвалиев тахрири остида
Т.: 2013.5 жилд
37. Уфимцева А. А. Семантика слова. Аспекты семантических исследований. М.:1980. - 323с.
42. Шмелев Д. Н. Проблемы семантического анализа лексики. М.: 1973. - 196с.

Ingliz tilidagi badiiy adabiyotlar ro'yxati:

43. Arnold I.V. "The English word" М.: - 1973.
44. Charlotte Bronte" Jane EYRE" Macmillan,1957
45. Dictionary of Slang and Unconventional English? - London:
London
46. Routledge and Kegan Paul Ltd. Broadway house, 1964. V.1. - PP.
12-854.
47. E. A. Poe "Poems". Henry James ("A Bundle of Lettere"C5)
48. Hornby A. A. The Oxford advanced learner's dictionary of current English. 1985. -1159 p.

Foydalanilgan lug'atlar ro'yxati:

1. "Advanced grammar vocabulary" Oxford university press .1983
2. Chris Gough" English vocabulary organiser" LTP language, 2001
3. A.S.Hombey" Oxford English Dictionary of current English" Oxford University Press. 1982.
- 4 R.Qiyomov, D.Bagishev, S.Egamberdiyev, Y.Temirov " Contemporary English –Uzbek Dictionary" Toshkent yangi avlod , 2009.

Internet saytlari :

1. [http.www.google.com](http://www.google.com)
2. [http.www.yandex.com](http://www.yandex.com)
3. [http.www.yahoo.com](http://www.yahoo.com)
4. www.thefreedictionary.com/Dictionary.htm
5. www.zivouz.com
6. www.edu.uz
7. [www.universalinternet library.ru](http://www.universalinternetlibrary.ru)